

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

YIGITALIYEVA MOHIGUL SHUHRATJON QIZINING

**«SAVOD O'RGATISH DAVRIDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH»
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”

**Pedagogika va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani**

_____ **S.Azizov**

“ _____ ” _____ **2014 yil**

**«SAVOD O'RGATISH DAVRIDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH»
MAVZUIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ishi yo`nalishi 401-guruh talabasi
Yigitaliyeva Mohigul Shuhratjon qizi

Rahbar: p.f.n.dots.B.Abdurahmanova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning____
sonli bayonnomasi. « _____ » _____ 2014 yil.

Namangan – 2014

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI
5141600 – BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba:

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi universitet rektorining 2013 yil «2» dekabrda 183 A/C-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishni dastlabki himoyaga topshirish muddati “____” _____ 2014 yil.

3. Tavsiya etilayotgan asosiy adabiyotlar:

4. Ishning dolzarbligi:

5. Ishning maqsadi:

6. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatlar:

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchilarning F.I.SH.	Topshiriq berildi		Topshiriq bajarildi	
			Sana	Imzo	Sana	Imzo

7. Bitiruv malakaviy ishni bajarish rejasi:

[illegible]

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

(F.I.Sh.)

(imzo)

Kafedra mudiri:

(F.I.Sh.)

(imzo)

**MAVZU: SAVOD O'RGATISH DAVRIDA TA'LIMY
DIKTANTLARDAN FOYDALANISH**

KIRISH

**I BOB. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI
DIKTANT YOZISHGA O'RGATISH MASALALARI**

- 1.1. Savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari.
- 1.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish masalalari.
- 1.3. Diktant turlari haqida ma'lumot.

**II BOB. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI
DIKTANT YOZISHGA O'RGATISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH**

- 2.1. Savod o'rgatish davrida zamonaviy usullardan foydalanishning ahamiyati o'ziga xos tomonlari
- 2.2. Interaktiv usullardan foydalanib diktant yozishga o'rgatish darslarini tashkil etish.
- 2.3. Savod o'rgatish davrida ta'limiy diktantlardan foydalanish usullari.

TAJIRIBA ISHLARI VA NATIJALARI.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim sohasi ham davlat siyosatining ustuvor ahamiyatga yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning mazmun-mohiyati hayotga jadal tadbiq etildi. Respublikadagi uzluksiz ta'lim tizimining shakli bilan mazmuni takomillashib bordi. O'quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undovchi, faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonidan o'rin oldi. O'quv mashg'ulotlarini qiziqarli, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga tayanuvchi o'zaro faol munosabatlar asosida tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish ta'limiy va tarbiyaviy zaruratga aylandi. Qisqa vaqt oralig'ida ta'lim va tarbiyaning yetakchi maqsad hamda vazifalarini amalga oshirish, yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlovchi pedagogik texnologiyani boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiq etish vositasida o'quvchilar mustaqil fikrlash qobiliyatini, nutqini, kitob o'qish malakasini o'stirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z nuqtai nazariga, qarashlariga ega insoniy fazilatlar sohibi sifatida shakllanishi esa ularning xatti-harakatlari, o'z burchiga munosabati, atrofdagilar bilan muloqoti orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish, muloqot madaniyatini egallab borishlarida ta'lim hamda tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish ham dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur malakaviy ishida savod o'rgatish davrida ta'limiy diktantlardan foydalanish orqali dars samaradorligini o'stirish omillari, samarali metod va usullarni qo'llash texnologiyasi asosidagi darslarni loyihalashtirish metodikasi yoritilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr — bu boshlang'ich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish,

asosan, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi.

Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmokda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, Darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyala-rini keng joriy etish masalalari o'z ifodasini topishi kerak.

Ayni paytda, "Sog'lom bola yili"-ning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, farzandlarimizda, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha aniq tadbirlarni belgilab, amalga oshirishimiz lozim.

To'rtinchidan, hammamizga ayonki, farzandlarimizni, yangi avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, bu maqsadga erishish, hech shubhasiz, davlatimiz, jamiyatimizning e'tibor markazida turishi, olib borayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart.

Shu maqsadda bu masalaga daxldor va mutasaddi bo'lgan qaysi soha, qaysi jarayonni olmaylik, ularning barchasini rivojlantirish, yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishda davlatning roli katta ekani hech kimga sir emas.

Shuni hisobga olgan holda, "Sog'lom bola yili" dasturi tarkibida, avvalo, yillik rejalarni belgilab olib, turli soha va tarmoqlar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarga taalluqli masalalarni yechish uchun ajratiladigan mablag' bo'ladimi, bugungi kunda zamonning o'zi talab qilayotgan sharoitlarni tug'dirib berish bo'ladimi — bularning barchasiga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz zarurligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Shu bilan birga, bu masala bo'yicha jahon miqyosidagi ilg'or, taraqqiy topgan davlatlarning tajribasini o'rganish va yurtimizda joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, ularni og'ir va sog'liq uchun zararli ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo'yilishi, homiladorlik ta'tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta'tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar bunga misol bo'la oladi. Inson mehnati va bu mehnat jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash har bir jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"da hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlaganidek: «O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali nomoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror mo'jizasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.²

Respublikamiz ijtimoiy va madaniy hayotida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida aniq va pishiq ish olib borish. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravshan, izchil ifodalay bilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash singari talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir².

Prezidentimiz 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida qator takliflarni bildirib o'tdi. Bugungi kunda jamiyatda barcha sohalarni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilgan holda yutuqlar samaradorligini ta'minlashga katta

¹Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so'zi, 2013-yil, 7-dekabr.

¹ Qudratov O., G'aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. –T.:Aloqachi,2004.-3-b.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008yil.

e'tibor berilmoqda. Bu borada Prezident haqli ravishda shunday degan edi: "Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor - investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi". Shuningdek yurtboshimiz ma'naviy yetuk barkamol avlod ta'lim va tarbiyasi ustivor vazifa ekanligiga ham alohida e'tibor qaratdi: "...Yurtimizda 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilganimizdan yaxshi xabardorsiz. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi. Dasturda belgilangan kompleks chora-tadbirlarni bajarish uchun 2010 yilda barcha moliyalash manbalari hisobidan 8 trillion so'm atrofidagi mablag', jumladan, 1,8 trillion so'm davlat mablag'lari, tijorat banklarining 3,3 trillion so'mlik kreditlari va mas'ul ijrochilarning 2,7 trillion so'mdan ortiq mablag'larini yo'naltirish mo'ljallangan".³

Yurtimizda ta'lim sohasiga bu qadar yuksak e'tibor berilayotgan bir davrda biz yoshlar ham o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Respublikamizda ta'lim tizimi, o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha bir necha qonun va qarorlar qabul qilindi. «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun yaratgan imkoniyatlar tufayli o'qish-o'qitish tizimida qator yangi fikrlar kirib keldi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» zamon talablariga mos bilimdon, ijodkor, mustaqil fikrlay oladigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ishini yaxshilash, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli kadrlarni o'qitib-tarbiyalab yetkazishni, bu ishlarni izchillik bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

² Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.- Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //O'zbekiston ovozi.-2010.-29 yanvar

Dasturda kishilar savodxonligini davrga mos tarzda oshirishga alohida e'tibor berilgan.

Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zaruriyati ona tilining jamiyatdagi bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat til orqali amalga oshadi. Kishilar o'z his-tuyg'ulari, kechinma va holatlarini taassurot va tasavvurlarini til vositasida ifodalaydilar.

Umumiy ta'lim tizimida ona tili asosiy va markaziy o'ringa ega. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning asosi, poydevori bo'lgan boshlang'ich sinflarda ona tili yetakchi mavqeda turadi. Yosh avlodda fikrlash va fikrni to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasini hosil qilish va rivoj toptirish, ularga ona tilining qonun-qoidalarini singdirish, bu qonun-qoidalarni amalda qo'llay bilishni o'rgatish, ularni savodxonlik bilan to'g'ri va chiroyli yozish, to'g'ri talaffuz, ifodali nutq. O'z his-tuyg'ularini so'z vositasi bilan yuzaga chiqara olish malakalariga ega qilish, bular orqali amaliy faoliyatga tayyorlash boshlang'ich sinflarda boshlanadi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatib boriladi.

Shu bilan birga o'quvchilar ushbu so'zlarning yozilishi bilan ham tanishib boradilar. O'quvchilar ona tili qoidalari bilan birgalikda to'g'ri va chiroyli yozishga o'rganib borishlari lozim bunga erishish uchun esa doimiy ravishda o'quvchilarni savodli yozish malakalarni rivojlantirib borishimiz lozim.

Bugungi kunda ayrim joylarda panolarda, viveskalarda, jamoat joyidagi e'lonlarda ayrim orfografik va imlo qoidalari buzilgan holatdagi yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Afsuski bunday kamchiliklar tez-tez ko'zga chalinib turibdi. Albatta bularning barchasiga yoshlikdanoq savodli yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yaxshi e'tibor qaratilmasligi deb olishimiz mumkin. Shuning uchun ham o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq savodli yozishga o'rgatib

borish bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli muammolardan biri bo'lib qoladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni yozishda savod o'rgatish davrida ta'limiy diktantlardan foydalanish orqali o'quvchilarning savodxonligini oshirish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini diktantni savodli yozishga o'rgatish bo'yicha adabiyotlar va internet ma'lumotlari tahlili,
- o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatish masalalarini o'rganib chiqish
- darslarda zamonaviy usullarni qo'llab darslarni tashkil etish bo'yicha adabiyotlarni o'rganib chiqish
- pedagogik texnologiyalar, innovatsion hamda interaktiv usullar, turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilarga savod o'rgatish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik hamda metodik adabiyotlar ta'lim mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlar mazmunini o'rganish va tahlil qilish; nazariy-mantiqiy tahlil, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ta'lim jarayonini kuzatish, suhbat, so'rov-anketa, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natijalarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti qilib Pop tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 1-sinflarida savod o'rgatish davrida tanlab olindi.

Quyidagicha tadqiqod usullaridan foydalanildi:

1. Mavzuga oid darslarni kuzatish;
2. O'qituvchilar orasida anketa so'rov ishlari;
3. Tajriba-sinov o'tkazish va ularni tahlil qilish;

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Boshlang'ich sinf savod o'rgatish davrida ta'limiy diktantlardan foydalanish usullari nazariy jihatdan asoslangan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda yoritilgan nazariy va amaliy fikrlardan o'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari pedagogika fakulteti talabalari o'quv jarayonini tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.

Ushbu Bitiruv malakaviy ish ikki asosiy bob, boblarga tegishli 6 band, Tajriba ishlari, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI DIKTANT YOZISHGA O'RGATISH MASALALARI

1.1. Savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. SHuningdek, o'quvchilar lugatini boyitish, boglanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, mavxum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishda o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqing eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'gin, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarni o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qish va yozish — nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. „Alifbe"ga suyangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rganadilar.

Savod o'rgatish davrda o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Ushbu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikmalarsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi iyuimkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari bo'ylab qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutitsh, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday uhlash, qanday yurgizish haqida

o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatini boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllantirildi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday darajada o'qitilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar" o'qish va yozishga " o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga intilishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalay olishlari uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi zarur.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yo-zuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad — o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarishi shart bo'lgan kundalik maqsad — topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish, rasm asosida so'zlab berish kabilar turadi.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-

da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida“gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli — o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o`.

E harfi so'z va bo'g'in boshida qo'llanadi (*ekin, echki, aeroplan*), undoshdan keyin o'rta keng lablanmagan unli tarzida o'qiladi (*kel, tez*). Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan e, so'ngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

O harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan olovushini ifodalaydi, ruscha-baynalmilal so'zlarda urg'usiz bo'g'inda a tarzida (*botanika*), o` tovushi kabi (*tonna*), qisqa i tarzida (*traktor*) ta-

talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

A tovushi *bahor*, *savol* kabi so'zlarda o kabi, *muomala*, *munosabat* kabi so'zlarda i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi.

U tovushi *qovun*, *sovun* kabi so'zlarda i tovushiga yaqin talaffuz eshitilsa ham u yoziladi.

1 tovushi *bilan*, *sira* kabi so'zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (*jurnal*), j (*jo'ja*), k, i, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g, sh, ch, ng. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi j tovushini o'rgatish, talaf-liizini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko'nikmalar liosil qiliinadi, keyingi darsda esa sirg'aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o'rgatiladi. So'ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovushli sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o'qiladigan holatga to'xtalmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi ($b—p$, $d\sim t$, $v—f$, $g\sim k$, $Z\sim s$ kabi) haqida dastlabki amaliy tiishunchalar hosil qilinadi, utaniing talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi.

X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tiishunchalar beriladi, ularni farqlash bo'yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tiishunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikmalar shakllantiriladi.

Savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun sozni bog'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olsalar, o'qish ko'nikmasini ham yaxshi egallaydilar.

Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra o'ifoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabiiar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya“ (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (*Bolalar yuguiyaptilar*), sodda yoyiq gap (*Lola do'konga bordi*), uyushiq bo'lakli gap (*Anvar o'qidi va yozdi*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va „*Bu nima?*, *Bu kim?*, *U nima qilyapti?*“ kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o`rgatish davrida nutq o`stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetiarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog`, sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig`iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

o`qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o`rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o`quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalarning talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o`rniga boshqasini (*sh* o`rniga *s*, *r* o`rniga *i*) talaffuz qiliadilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiliadilar, tovushlar o`rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. o`quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O`qishni endi o`rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o`zlashtirmaydi, chunki u so'zni qanday o'qishga ko'p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o`qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ularning ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmiga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish

uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirishga, ya'ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatish, bo'g'in yoki so'zdan o'sha tovushni ajrata olish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o'stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlashni, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bu jarayon o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jismoniy mashqlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchi ruchkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rilaydi. Bunda u o'qituvchiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo'li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayoni o'quvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli o'qituvchi yozuv jarayoniga sabr-qanoat bilan katta e'tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

1.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish masalalari

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, mavxum tafakko'rini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishda o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqning eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvoffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:¹

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiridadi.

2. So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratibolinadi: ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadilar. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-ot) aytadi va qaysitovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasml alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

¹ Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 24-bet.

3.O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlı alifbodan ko'rsatadilar.

Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin.

Bunda «Alifbe» sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni harf xattaxtasiga bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan xolda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, «Alifbe» sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lam, Man-non, tipidagi bo'g'inlarda — o-la:m, Ma: n- no: n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'st tipidagi bo'g'inda ring, do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, har bir o'qish darsida albatta bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiriladi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

«Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?

Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qiganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi,

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 51 -sahifada uvol, rizq-ro'z so'zlari bor. Ularning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

She'r, tez aytilish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarni o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq xolda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'irlash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq xolda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik «hikoyacha» (bog'lanishli nutq)ni og'zaki turli tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yirik gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga

bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashadi, ukasiga qaraydi), tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy -mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqni o'stirishda bolalarning o'yin va ertaklari, rasm ko'rish va Bu nima? Bukim? Bu qanday predmet? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq ma'lum bir temada (kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yirik gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va xodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish. Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi.

Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlaydilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olam, Naima kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar.

Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul—gulchi-guldon—gulzor, bog'-bog'bon-bog'cha kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni «O'zakdosh so'zlar» mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

Savod o'rgatish jarayonida yozuvga o'rgatish.¹ Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, xoshiyaga rioya qilish.
2. Ish daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish: bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.
3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.
4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va diktovka bilan yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izoxlab o'qish bilan tekshirish.
5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

¹ Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T. "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 56-bet.

Analitik-sintetik tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi.

Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va orfografik qoidalariga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuvlaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvoffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o'tadi. Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi.

Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq bolalarda uz fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqga, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish, harf birikmalarini, bo'g'inni yozish, harflarni to'g'ri tushib yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish. Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda «chizadi», harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi: o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993 yil 2 sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbodagi harflarning asosiy xususiyati bosmasdan, qo'lni uzmasdan bog'lab yozishga mo'ljallangan. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.

Maktabda asosiy yozuv o'uroli sharikli ruchka, xattaxtada yozish uchun bo'rdan foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan

bo'lsa, keyin quyoq yopiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan.

Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan bola boshlang'ich sinflarni bitirgunga qadar besh xil daftarga yozishni o'rganishi talab etilar edi.

Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba'zan birinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni xoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavxani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar «Yozuv daftari» bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lgani ma'qul.

O'qituvchi yozish vaqtida 65 gradus qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25 gradus qiyalikda qo'yilishini ta'kidlab turadi.

Orfografiya grekcha «to'g'ri» va «yozaman» so'zlaridan olingan bo'lib, adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq. Orfografiya to'g'ri yozish haqidagi qoidalar ko'nikmasidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til normalari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi. O'quvchilarning orfografik savodxonligi qaqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatishda bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan bir vaqtda imloga oid malakani shakllantirishga ham zamin yaratiladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar: a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini; b) so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni; v) so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni, bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chirib yozib bo'lmasligini; g) gap

boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadilar.

Savod o'rgatish davridayoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalaniladi. O'z-o'zini tekshirishga o'rganadilar.

Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu davr o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli savodli yozishlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Diktant turlari haqida ma'lumot

O'quvchilar savodxonligini oshirishda foydali mashqlardan biri diktantdir. Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, ishda aniqlikka e'tibor berish, soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'quvchilarni o'z-o'zini tekshirishga odatlantirish zarur.

O'quvchi diktant yozishda so'zning harfiy ifodasini ko'rmay, eshitish sezgisi orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashlab yozadi. Bunda psixologik jarayon bilan fiziologik jarayonning birgalikda harakatlanishi so'zlar shaklining bolada mustahkamlanib borishiga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o'rgatishda o'z tabiatiga ko'ra to'la ta'limiy yozma ish hisoblanadi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

I. Ta'limiy diktant. Diktantning bu turi o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining biror qismida o'tkazilib, unga alohida soat ajratilmaydi.

Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.

6. Rasm diktant.

7. Lug'at diktant.

8. Ijodiy diktant.¹

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarini o'quvchilar qay darajada o'zlash-tirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, „Kitob — bilim manbai" — Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida k, i; ikkinchi bo'g'inida t, o, **b** tovushlari bor. Oxirgi **b** tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda **b** yoki p tovushini ifodalovchi harming yozilishini tekshirib aniq-laymiz.

¹ Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T. "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 56-bet.

Buning uchun so'z oxiriga **i** tovushini qo'shamiz va aytamiz: **kitobi**. **B** tovushi yozilar ekan" kabi izohlanadi.

Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so'zlarnigina yozish (1 -sinf), qaratqich kelishigidagi so'zni u bog'langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so'zni u bog'langan fe'l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o'quvchilarda imloviy ziyrak-likni o'stiradi.

Erkin diktantda o'quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3—5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi awal matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazadi. Ayrini qoidalarini eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilarvayozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi.

O'qituvchi mazkur maqsaddan kelib chiqib, imloviy malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarini bilib olib, uni tatbiq qilishga o'rganganlaridan so'ng o'tkaziladi. Bayon yozganda o'rganilgan imlo qoidalarini to'g'ri tatbiq etish ularning ongli o'zlashtirilganligini ko'rsatadi

II. Tekshirish diktanti. Diktantning bu turi o'rganilganlarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Shu o'rinda biz bu aytib o'tgan diktant o'tkazish usullari xususida to'xtalishni joiz deb bildik.

Lug`at diktanti.

Lug`at diktant o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkmlash, o'quvchilarning so`z boyligingi oshirish maqsadida o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'rgailgan imlo qoidalarini o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirlganini sinash, hisobga olish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Lug`at diktant uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so`zlar, so`z birikmalari yoki turli narsalar va ularning rasmlaridan foydalaniladi.

Agar tayyor so`z va so`z birikmalari yozdiriladigan bo`lsa, dastlab ularning ma`nosi, talaffuzi va yozilishi suhbat orqali izohlab tushuntiriladi.

Diktantda turli narsalar yoki ularning rasmlaridan foydalaniladigan bo`lsa, ishni quyidagicha tashkil etiladi: tanlangan narsa rasmlari yoki o`zi tartib bilan o'quvchilarga ko`rsatiladi. O'quvchilar rasmda ifodalangan narsa nomini yozib, vergul qo`yadilar. Ish shu tarzda davom etadi. O`qituvchi birinchi so`zni bosh harf bilan boshlab yozish va oxirgi so`zdan keyin nuqta qo`yish kerakligini ta`kidlaydi.

O'quvchilar yozganlarini imlo lug`atiga yoki o`zlarining lug`at daftarlariga solishtirib tekshiradilar. Yo`l qo`ygan xatolarini mustaqil ravishda to`g`rileydilar, keyin esa o`qituvchi tomonidan tekshirib baholanadi.

Lug`at diktantini yozish uchun: 2 sinfda 3 ta so`z; 3-sinfda 10 so`z; 4-sinfda 12-15 ta so`z bo`lishi mumkin.

Saylanma diktant.

Saylanma diktant o`rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo`llashga yordam berish bilan o`quvchilar mavzuni qay darajada o`zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi.

Diktantning bu turida o`quvchi o`qituvchi aytgan matnning yoki gapning hammasini yozmay, o`rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so`zlar yoki so`z birikmalarinigina saylab yozadi, shuning uchun ham saylanma diktant deyiladi.

Saylanma diktant quyidagi tartibda o`tkaziladi: o`qituvchi «Diktantlar to`plami»<sup>4</sup> dan o`rganilgan qoidaga mos, shu yozuv ko`proq ishtirok etgan matnni tanlaydi. Matn darsdan oldin yozuv taxtasiga yozib qo`yiladi. (Ko`chma yozuv taxtasidan foydalanish ham mumkin). O`qituvchi matnni bir marta o`qib bergach, matn tahlil qilinib, o`rganiladigan qoida asosida yoziladigan so`zlar yoki so`z birikmalari aniqlatiladi hamda qoida takrorlab mustahkamlanadi. Keyin matn bir o`uvchiga o`qitilib, bolalar diqqati shu yozuvga jalb qilinadi. Matn parda bilan berkitib qo`yiladi va o`qituvchi bolalarga ta`kidlaydi:

- Men matndagi gaplarni tartib bilan o`qiyman. Sizlar men o`qigan gaplarni to`liq yozmay, takrorlangan qoidaga muvofiq bo`lgan so`z va so`z birikmalarinigina saylab yozasizlar. Agar gapda shu qoida asosida yoziladigan so`z yoki so`z birikmasi bo`lmasa, u gapni butunlay yozmaysizlar.

O`uvchilar saylanma diktantni yozib bo`lgach, yozuv taxtasidagi matn ochiladi va ish o`qituvchi rahbarligida tekshiriladi: o`qituvchi saylab yozish kerak bo`lgan so`z va so`z birikmalarining tagiga chizadi, o`quvchilar yozganlarini yozuv taxtasidagi matn bilan solishtiradilar.

Saylanma diktantni 3-4-sinflarda o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

Diktantning bu turini yozish uchun o`quvchi grammatik va imlo qoidalarini puxta bilgan bo`lishi kerak. Saylanma diktant o`quvchilarni har bir gapga, so`z birikmasiga, har bir so`zga diqqat bilan qarashga odatlantiradi, kerakli

⁴ Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Diktantlar to`plami.-T., 2011.

soʻzni, grammatik shaklni, qoidaga mos yozuvni tezroq topa bilishga, ziyraklikka oʻrgatadi.

Koʻrsatish diktanti.

Koʻrsatish diktanti boshlangʻich sinflarning hammasida oʻtkaziladi. Buning uchun oʻtilgan mavzuga doir matn «Diktantlar toʻplami» dan tanlanadi va darsdan odin husnixat qoidlalariga rioya qilgan holda yozuv taxtasiga yozib qoʻyiladi.

Matn bir marta shoshmasdan ifodali qilib oʻqib beriladi. Suhbat (savol-javob) yordamida tushuntiriladi va oʻrganilgan qoidalar eslatilib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Shundan keyin matn parda bilan bekitib qoʻyiladi va aytib yozdiriladi. Matnni aytib yozdirib boʻlingach, parda osiladi. Oʻquvchilar yozganlarini yozuv taxtasidagi yozuvga taqqoslab, yoʻl qoʻygan xatolarini toʻgʻrilaydilar. Masalan, 2-sinfda nutq va gap haqida tushuncha hosil qilingandan keyin shunga oid birorta matn yuzasidan koʻrsatish diktanti oʻtkaziladi.

Yozuv taxtasidagi matn ifodali qilib oʻqilgach, gapning oxirida ovozning pasayishi, yozuvda nuqta qoʻyilishi, gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlab yozilishi suhbat yordamida tushuntiriladi. Soʻng matn ustini parda bilan berkitib, aytib yozdiriladi.

Oʻqituvchi birinchi gapni (Tong otdi) aytadi, nuqta qoʻyilishi aytmaydi. Oʻquvchilar gapni yozib oxiriga nuqta qoʻyadilar. Oʻqituvchi keyingi gaplarni ham shu tartibda aytib yozdiradi.

Matn yozdirib boʻlingach, yozuv taxtasidagi matn ochiladi. Oʻquvchilar yozganlarini yozuv taxtasidagi yozuvga taqqoslab, xatolarini tekshirib toʻgʻrilaydilar.

Oʻqituvchi oʻquvchilar daftarini darsning oxirida yigʻib oladi, tekshirib, mustaqil ishlar singari baholaydi.

2-sinfda soʻz oxirida jarangsiz jufti eshitiladigan maktab, maqsad kabi soʻzlarning yozilishini mustahkamlash uchun quyidagi toʻrtlikni koʻrsatish diktanti qilib yozdirish mumkin.

Bizlar yosh avlad,
Yashaymiz hur, shod.
Mehnat-la obod,
Mening Vatanim.

Bunda matn ifodali oʻqib berilgach, savol-javob yordamida oʻquvchilar shod, avlod, obod soʻzlarining oxirida kelgan undoshning jarangsiz jufti «t» talaffuz qilinishini, ammo yozuvda «d» harfi bilan yozilishini aytib, tekshirish yoʻlini (bunday soʻzlar oxirida qanday harf yozilishini aniqlash uchun shu soʻzga unli qoʻshib oʻqilishi kerakligini) eslatadilar. Matnni bekitib aytib yozdiriladi. Oʻquvchilar matnni yozib boʻlgach, parda ochiladi. Ishning davomi yuqoridagi tartibda davom ettiriladi.

Soʻz oxirida jarangsiz jufti eshitiladigan soʻzlarning yozilishini mustahkamlash maqsadida koʻrsatish diktantining ikkinchi usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda matn toʻliq yozilmay, balki oʻrganilishi lozim boʻlgan mavzuga doir soʻzlarga (shod, avlod, obod) yoziladi.

Oʻqituvchi shu soʻzlar ishtirok etgan sheʼrni bir marta oʻqib beradi. Matn mazmuni ikki-uch oʻquvchiga soʻzlatiladi va matndagi shod, avlod, obod soʻzlari yozuv taxtasiga yoziladi. Yozuv taxtasigai soʻzlar ikki-uch oʻquvchiga oʻqitilgach, suhbat yordamida oʻquvchilar shu soʻzlarning aytilishi va yozilishini, soʻzlarning oxirida qanday harf yozilishini tekshirish yoʻlini tushuntiradilar yoki oʻqituvchining oʻzi tushuntiradi. Shundan soʻng matn aytib yozdiriladi. Matn yozib boʻlingach, yozuv taxtasidagi soʻzlar ochib qoʻyiladi, oʻquvchilar yozganlarini tekshiradilar.

Koʻrsatish diktantini oʻtkazish uchun mustahkamlanishi koʻzda tutilgan mavzuga doir matnni «Ona tili»⁵, «Oʻqish kitobi»⁶ darsliklaridan yoki badiiy

⁵ Qosimova K., Fuzailov S., Neʼmatova A. Ona tili: 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: Choʻlpon, 2010.- 128 b.

⁶ Abdullayeva Q. va boshqalar. Oʻqish kitobi: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2002.- 192 b.

adabiyotlardan tanlash ham mumkin. Masalan, 2-sinfda unli tovushlar o`tib bo`lingach. «Ona tili»⁷ darsligidagi shu unli tovushlar qatnashgan birorta matndan foydalanib, ko`rsatish diktantini yozdirish mumkin.

O`qituvchining ko`rsatmasi bilan o`quvchilar kitobning shu betini ochadilar. O`qituvchi matnni o`qiydi, o`quvchilar kitoblaridan kuzatib boradilar. Matndagi unli tovushli so`zlar ikki-uch o`quvchiga o`qitilgach, kitoblar yoptirib qo`yiladi. O`quvchilar yozuv taxtasiga oldindan yozib qo`yilgan sana va matn sarlavhasini daftarlariga yozadilar. Shundan keyin «O`yinchoqlar» matni aytib yozdiriladi. O`quvchilar yozganlarini avval mustaqil, keyin kitoblarini ochib, yozganlarini tekshirib o`qiydilar va hokazo.

«Diktantlar to`plami»da ko`rsatish diktanti uchun tavsiya etilgan matnlardan o`qituvchi o`z sinfi o`quvchilarining bilim saviyasi, qabul qilish darajasiga qarab foydalanishi, ayrim matnlarga ijodiy yondashishi mumkin.

Ko`rsatish diktanti o`quvchilarning ko`rish, idrok etish sezgilari bilan eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga yordam beradi.

O`z diktant yoki yoddan yozuv.

O`z diktant yoki yoddan yozuv boshlang`ich sinflarning hamasida o`tkaziladi. Diktantning bu turini o`quvchilar juda sevib bajaradilar. O`z diktant uchun sinf o`quvchilarining saviyasiga mos kichik bir parcha (yoki biror to`rtlik) tanlanadi. Tanlangan matn yozuv taxtasiga yozib qo`yiladi. Matnni o`qituvchi o`qib beradi. Matndagi izoh talab etiladigan so`zlar izohlanib, imloga doir qoidalar takrorlanadi. Shundan so`ng matn 3-4 bolaga o`qitilgach, yod olishlari uchun bir necha minut vaqt beriladi. O`quvchilar matnni yod olgach, uni bekitib qo`yiladi. Ular yodlagan matnlarini mustaqil yozadilar. Keyin yozuv taxtasidagi matn ochiladi. O`quvchilar yozgan matnlarini yozuv taxtasidagi matnga taqqoslab tekshiradilar va xatolarini tuzatadilar. Diktant o`tkazish tartibidan bilinib turibdiki, matn aytib yozdirilmaydi, balki matnni o`quvchilar yodlaydilar va mustaqil yozadilar, shuning uchun ham u o`z diktant yoki yoddan yozuv deyiladi.

⁷ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2010- 128 b.

O`z diktant imlodan berilgan ma`lumotlarni singdirish, o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini o`stirish, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi. «Diktantlar to`plami»da yoddan yozuv uchun matnlar berilgan. O`rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun «O`qish kitobi»⁸ va «Ona tili»⁹ darsliklarida ham matnlar mavjud. Darslikdagi matndan foydalanib o`z diktant o`tkazilganda, matnni yozuv taxtasiga yozish shart emas. O`z diktant o`tkaziladigan matnni uyda yodlab kelishga topshirish ham mumkin. O`z diktantda o`qituvchi quyidagi kabi qo`shimcha topshiriqlarni berishi ham muki: matndagi otlarning tagiga to`g`ri chiziq chizish, ayrim bir yoki ikki so`zni bo`g`in ko`chirish qoidasiga ko`ra bo`laklarga ajratib yozish, matndagi fe`llarni aniqlab, tagiga chizish va hokazo. O`z diktant o`quvchilarda matn ustida ishlash malakasining shakllanishiga ham yordam beradi.

Ta`kidiy diktant.

Ta`kidiy diktant uchun tanlangan matnni yozdirishdan oldin o`quvchilarga o`rganilgan qoidalar eslatilib, ayrim so`zlarning yozilishi tushuntiriladi, sharoit talab qilsa, ayrim so`zlarni grammatik tahlil qilib, un umuman, yozish jarayonida nimalarga e`tibor berish kerakligi ta`kidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turini ta`kidiy diktant deyiladi. Ta`kidiy diktant uchun matnni «Diktantlar to`plami»dangina emas, «Ona tili»¹⁰, «O`qish kitobi»<sup>11</sup> dan tanlash ham mumkin. CHunki o`qituvchi ta`kidiy diktant o`tkazishdan bir necha kun oldin yozdiriladigan matnni o`qib kelish uchun topshiradi. Bundan maqsad o`quvchilarning o`rgangan imlo qoidalarini mustahkamlash, undan amalda foydalanish ko`nikmasini hosil qilishdir. Ta`kidiy diktant quyidagi tartibda o`tkaziladi: tanlangan matn bir marta o`qib eshittiriladi. Matn mazmuni o`quvchilarga savol-javob yordamida tushuntiriladi. Mazmuni ikki-uch o`quvchiga so`zlatiladi. Mustahkamlanishi ko`zda tutilgan imlo yoki tinish belgilariga oid qoidani takrorlab, ta`kidlab eslatiladi; matndagi shu qoida asosida yoziladigan so`z

⁸ Abdullayeva Q. va boshqalar. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O`qituvchi, 2002.- 192 b.

⁹ Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili: 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: Cho`lpon, 2010.- 128 b.

¹⁰ Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili: 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: Cho`lpon, 2010.- 128 b.

¹¹ Abdullayeva Q. va boshqalar. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O`qituvchi, 2002.- 192 b.

yoki qo'yish lozim bo'lgan tinish belgilari aniqlanadi, o'quvchilar mustaqil misol tanlaydilar va qoidani tushuntirib beradilar. O'quvchilarning javoblari xulosalanadi. Shundan keyin matn aytib yozdiriladi. O'quvchilar matnni yozib bo'lgach, o'z ishlarini tekshirib chiqishlari uchun vaqt beriladi. Maslan, 2-sinfda yumshatish belgisining yozilishini mustahkamlash maqsadida quyidagi matndan foydalanib ta'kidiy diktant o'tkazish mumkin.

Buyuk ipak yo'li.¹²

Buyuk ipak yo'li asrlar davomida qit'alarni bir-biri bilan bog'lagan. Yo'l o'tgan o'lkalarda savdo-sotiq rivojlangan, ma'rifat-madaniyat ravnaq topgan.

Bu muqaddas yo'l O'zbekistonning shaharlari va talay salobatli qal'alari orqali o'tar edi. Bozorlarni noz-ne'matlar bilan to'ldirgan. Elatlarga to'kin-sochin hayot baxsh etgan. Xalqlar bir-birlari bilan do'stlikda, tinchlikda barqaror hayot kechirishga intilganlar.

Hozir ham ajdodlar asos solgan bu tabarruk yo'l o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Matn bir marta o'qib berilgandan keyin, tutuq belgisining yozilishi haqidagi qoida takrorlanadi: o'quvchilar qoidani aytadilar, misollar keltiradilar. Keyin o'quvchilar qit'alarni, ma'rifat, qal'alari, noz-ne'matlari so'zlaridagi tutuq belgisining yozilishi haqidagi qoidani eslaydilar.

O'quvchilar daftarlariga sana va matn sarlavhasini yozib olgach, (bular yozuv taxtasiga yozib qo'yildi), matn aytib yozdiriladi.

Matn yozib bo'lingach, o'qituvchi matnni boshidan oxirigacha o'qib berishi, o'quvchilar yozganlarini kuzatib borib, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishlari mumkin. Ayrim hollarda matnni o'qituvchi o'qib berganidan keyin o'quvchilardan biriga daftaridan o'qitish ham foydlidir. O'quvchilar o'z ishlarini mustaqil o'qib, yo'l qo'ygan xatolarini tekshirganlaridan keyin daftarlari yig'ib olinadi.

¹² Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili: 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2004.- B. 20.

Izohli diktant.

Izohli diktant boshlang'ich sinflarning barchasi uchun mos bo'lib, o'quvchilarga yozdirilgan matn tarkibidagi imlosi qiyin so'zlarning yozilishini eslatish va ta'kidlash maqsadida o'tkaziladi. Belgilangan matn o'quvchilarga yozdiriladi. Undagi so'zlarning imlosi eslatilmaydi. O'quvchilar matnni yozib bo'lganlaridan keyin undagi matnni qanday yozganliklari so'raladi. Albatta, o'quvchilar yozuvida ayrim xatolarning bo'lishi mumkin. O'quvchilar yozuvidgi xatolar turli tartibda tuzatilib izohlanadi:

A) o'quvchilardan biri aytgan so'zdagi xatoni boshqa bir o'quvchi tuzatadi;

B) o'quvchi xatosini o'qituvchi og'zaki izohlaydi;

D) o'quvchi yozgan xato so'zni o'qituvchi yozuv taxtasiga yozib ko'rsatadi.

Shu tartibda o'quvchilar yozgan xato so'zlarini o'zlari tuzatadilar. Bu bilan o'quvchilarning imlo savodxonligini aniqlash va kamchiliklarini to'ldirish mumkin.

Izohli diktant uchn to'la bir dars ajratilishi shart emas. Ta'limiy diktantning boshqa turlari kabi yozuv darsining ma'lum bir qismida o'tkazish mumkin.

Izohli diktant uchun matnni o'quvchilarning dasrliklaridan ham tanlash mumkin. Bunday holatda matnni o'quvchilarga yozdirib bo'linganidan keyin ular kitoblarini ochib, yozganlarini taqqoslab ko'radilar. O'zlari sezgan xatolarini tuzatadilar. Lekin hamma o'quvchilar ham o'z xatolarini topa olmaydilar. Ayniqsa, bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilar bu ishga qiynaladilar. Shuning uchun ular bilan alohida ish olib borishga to'g'ri keladi. Ya'ni o'quvchilar o'z yozuvlarini kitobdagi matnga taqqoslab xatolarini tuzatayotganlarida o'qituvchi bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchi bilan ikki tartibda ishlashi lozim.

Izohli diktant o`quvchi faoliyatini oshirishda eng foydalai yozma ish turlaridan hisoblanadi. Bu diktant turini 2-4-sinflarda tez-tez o`tkazib turish foydali.

Ijodiy diktant.

Ijodiy diktant o`rganilgan qoidalarini o`zlashtirish va yozuvda o`rinli qo`llash malakalarini mustahkamlash bilan birga, o`quvchilar og`zaki va yozma nutqining rivojlanishiga ijobiy ta`sir qiladi, ularda ijodkorlik, mustaqillik kabi zaruriy malakalarning shakllanishida muhim o`rin tutadi.

Ijodiy diktantda o`quvchilarga o`rganilgan qoidaga mos so`z, so`z birikmalari, biror mavzuga oid so`roqlar beriladi. Ular berilgan so`z va so`z birikmalarini qatnashtirib gap yoki hikoyacha tuzadilar.

O`qituvchi ana shu berilgan so`zlar yoki so`z birikmalari yordamida tuzatiladigan hikoya mazmuni va ishni bajarish usuli haqida o`quvchilarga tushuncha berishi kerak, chunki ijodiy diktant matni aytib turilmaydi, gap yoki matnni o`quvchilarning o`zlari ijod qiladilar. O`qituvchi ko`rsatmasiga ko`ra ungi yozadilar. Shu jihatidan ijodiy diktant inshoga o`xshab ketadi.

O`quvchilarning ijodkorlik faoliyatini yoshlikdan tarbiyalash maqsadida ijodiy diktantni izchillik bilan, tez-tez o`tkazib turish lozim. Bu bilan o`quvchilarni yuqori sinflarda ijodiy xususiyatga ega bo`lgan yozma ishlarni yozishga, xususan, inshoga tayyorlnadi.

Ijodiy diktantdan 1-4-sinflarda keng yodalaniladi. Alifbe davridanoq o`quvchilarni ijodiy diktant yozishga tayorlab boriladi. Buning uchun quyidagidek tayyorgarlk ishlari olib boriladi:

1. Berilgan so`zlardagi tushirib qoldirilgan tovushlarni topib aytish va shu tovushni ifodalovchi harfni tanlab, so`zni yozish: m.na (mana), bo.o (bobo) singari.

2. Berilgan gapdagi nuqtalar o`rniga gapning mazmuniga mos so`z topib aytish va yozish: O`quv qurollarini ... (yaxshi) saqlayman.

3. Berilgan soʻzlardan gap tuzib aytish va uni oʻqituvchi koʻrsatmasi bilan yozish: Erta, bu yil, keldi, bahor. (Bu yil bahor erta keldi).

4. Berilgan savolga mustaqil javob qaytarish va uni yozish: Oʻquvchi nima qiladi? (Oʻquvchi oʻqiydi, yozadi va dam oladi).

Bunday ijodiy diktantga tayyorlov mashqlarida oʻquvchilar koʻproq notoʻgʻri talaffuz qilishi sababli xatoga yoʻl qoʻyadigan soʻzlardan tanlash maqsadga muvofiq boʻlib, foydali natija beradi.

Ijodiy diktant quyidagicha oʻtkazilishi mumkin:

1. Berilgan soʻzlardan qatnashtirib gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turi boshlangʻich sinfning hammasida oʻtkaziladi. 2-sinfda «Harakatni bildirgan soʻzlar» mavzusi oʻtilganda harakatni bildirgan bir necha soʻz yozuv taxtasiga yoziladi: maʼraydi, kishnaydi, qichqiradi. Oʻqituvchi yozuv taxtasiga yozilgan soʻzlardan qatnashtirib gap tuzish kerakligini tushuntiradi. Buning uchun vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt oʻtgach, oʻqituvchi oʻquvchilardan tuzgan gaplarini soʻraydi. Oʻquvchilar tuzgan gaplarini aytadilar: Sigir maʼraydi. Ot kishnaydi. Xoʻroz qichqiradi. (Xoʻroz erta tongda qichqiradi).

Oʻquvchilarning talaffuzida yoʻl qoʻngʻan xatolari tuzatiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilar aytganlaridan maʼqulini tanlab, aytib yozdiradi. Ish shu tarzda davom etadi. Oʻquvchilarda ijodiy diktant yozish malakasi hosil boʻlgach, tanlangan gapni tuzgan oʻquvchining oʻzi yozishi ham mumkin.

2. Aralash berilgan soʻzlardan gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turida gap tuzish uchun zarur boʻlgan soʻzlar aralash, oralariga vergul qoʻyilgan holda beriladi. Oʻquvchilar bu soʻzlardan bittadan gap tuzib aytadilar. Ularning yoʻl qoʻngʻan xatolari tuzatiladi. Toʻgʻri tuzilgan gaplarni oʻqituvchi yoki shu gapni tuzgan oʻquvchining oʻzi aytib yozdiradi. Ijodiy diktantning bu turi boʻyicha oʻquvchilarda malaka hosil boʻlgach, ular oʻzlari tuzgan gaplarini mustaqil ravishda yozadilar. 3-4-sinflarda esa har bir gap uchun 3-4 tadan alohida soʻz emas, balki oʻrganilgan grammatik qoidalar hisobga olingan holda bir yoʻla 20-30 soʻz yozuv taxtasiga yozib beriladi. Ana shu soʻzlar

asosida gaplar tuzish va tuzilgan gaplardan hikoya hosil qilish kerakligi tushuntiriladi.

Masalan, 3-sinfda o`qituvchi quyidagi so`zlarni yozuv taxtasiga yozib berib, «Oromgohda» mavzusida gaplar yoki hikoya tuzishni topshiradi.

O`quvchi, yoz, oromgoh, jismoniy tarbiya, shug`ullan, kinofilm, ko`r, albom, tuz, hayot, tog`, yaqin, sayohat, turli barg, bola, suv, muzdek, maza, ta`til, ko`ngilli, o`tkaz.

Bolalar tuzgan gaplarini aytadilar. O`qituvchi ular yo`l qo`ygan xatolarni tuzatadi va «Oromgohda» mavzusida hikoya hosil qiladigan gaplarni tanlab, puxtalab boradi. Buning uchun u berilgan so`zlardan hikoyacha tuzib qo`ygan bo`lishi kerak. Aks holda kuzatilgan maqsadga erishib bo`lmaydi. O`quvchilar tuzgan gaplarini - hikoyalarini aytib bo`lgach, o`qituvchi o`zi tayyorlagan yoki ma`qul bo`lsa, o`quvchilar mustaqil tuzgan hikoyani bir marta o`qib berishi, keyin mustaqil yozishga topshirishi lozim.

Ijodiy diktantning bu turida bir mavzuda hikoya tuzish uchun o`rganilgan qoidalarga mos so`z birikmalarini berish ham mumkin. Bunda ham o`quvchilar yozuv taxtasiga yozilgan so`z birikmalarini qatnashtirib hikoyacha tuzadilar.

3. Ma`lum bir mavzuga berilgan savollarga javob qaytarish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turini o`tkazish uchun o`tilgan mavzuga mos bo`lgan bir necha savol yozuv taxtasiga yoziladi. Savollarga o`quvchilar avval og`zaki javob qaytaradilar. Keyin har bir savolga berilgan javobni daftarlariga yozadilar. Masalan, 2-sinfda kishilarning ismi, familiyasi bosh harf bilan yozilishi, shahar, qishloq, ko`cha, daryo nomlarining bosh harflar bilan yozilishi mavzulari o`tilgach, mustahkamlash maqsadida quyidagi savollardan foydalanib ijodiy diktant o`tkazish mumkin:

1. Sening isming nima?
2. Familiyang-chi?
3. Qaysi shaharda (yoki qishloqda) yashaysan?

4. Qaysi ko`chada (yoki jamoa xo`jaligida) turasan?

5. Nechanchi sinfda o`qiysan?

6. Biror narsani so`rash uchun o`qituvchingga qanday murojaat qilasan?

O`quvchilar savollarga og`zaki javob berganlarida, bosh harf bilan yoziladigan otlarni aniqlaydilar. Nima uchun bosh harf bilan yozilishini izohlaydilar.

O`quvchilar ijodiy diktantni taxminan quyidagi tartibda yozadilar:

Mening ismim – Abdulloh. Familiyam – Fatxullayev. Men Namangan shahrida yashayman. Navoiy ko`chasida turaman. Ikkinchi sinfda o`qiyman.

Mening ismim-Hakimjon. Familiyam – Ahmedov. Men Mashad qishlog`ida yashayman. Ikkinchi sinfda o`qiyman. Tasviriy san`at va mehnat ta`limi darslariga juda qiziqaman.

Ta`limiy - ijodiy diktantni har bir mavzudan so`ng o`tkazish maqsadga muvofiq. Ijodiy diktant o`tkazilganda, gap yoki matn tuzish uchun zarur bo`lgan so`zlar, so`z birikmalari yoki gaplar yozuv taxtasiga yozilib, o`quvchilar diktant yozayotgan vaqtda yozuv taxtasi vaqtincha parda bilan berkitib qo`yiladi. Ular diktantni yozib bo`lgach, yozuv taxtasidagi yozuv ochiladi. O`quvchilar yozganlarini solishtirib xatolarini tuzatadilar.

Diktantning bu turini tez-tez o`tkazish o`quvchilarda izlanish, ijod qilish, matiqiy fikrlash kabi aqliy faoliyatlarning taraqqiy etishiga katta yordam beradi.

Erkin diktant.

Erkin diktant ta`limiy diktantlarning bir turi bo`lib, o`quvchilar nutqini o`stirishga, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Erkin diktant uchun hikoya tarzidagi uncha katta bo`lmagan matn tanlanadi. Tanlangan bog`lanishli matnning har bir bo`limida ikkitadan uchtagacha gap bo`lishi kerak. Matnda o`quvchilar yozishga qiynaladigan yoki o`tilmagan imlo ishtirok etgan so`zlar bo`lsa, matn mazmuniga halal yetkazmagan holda, boshqa so`zlar bilan almashtirilishi yoki tushirib qoldirilishi mumkin.

Diktantning bu turida o`quvchilarga o`qilgan bo`limning mazmunini buzmaganda, gaplarning shaklini o`zgartirib yozish erkinligi beriladi. Masalan, «Quyosh chiqib, hama yoqqa nurini sochdi» gapining shaklini o`zgartirib, o`quvchilar «Quyosh o`z nurini sochdi», «Quyosh nurini hamma yoqqa sochdi», «Quyosh chiqib nurini sochdi» kabi yozishlari ham mumkin. Yoki «Nosir erta bilan turdi. Yuz-qo`lini sovunlab yuvdi. Nonushta qildi va maktabga jo`nadi» kabi uchta gap bilan ifodalangan mazmunni o`quvchilar «Nosir erta turib yuvindi. Nonushta qilib, maktabga ketdi» kabi ikkita gap bilan yozishlari mumkin. Shuning uchun ham erkin diktant deb ataladi.

Ayrim o`quvchilar sheva ta`sirida anor so`zini onor, kelyaptilar so`zini kevottila kabi yozib qo`yishlari ham mumkin. Bunday xatoning oldini olish uchun o`qilgan bo`lim mazmunini o`quvchilar erkin ravishda yozganlarida, adabiy til me`yorlariga rioya qilishlari tushuntiriladi.

Erkin diktant quyidagicha o`tkaziladi:

O`qituvchi o`quvchilarga erkin diktant va uni yozish tartibini qisqacha tushuntiradi. O`qituvchi yozuv taxtasiga, o`quvchilar esa daftarlariga sana, ish turi (erkin diktant) va sarlavhasini yozadilar. O`qituvchi o`quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda matnni bir marta ifodali o`qib beradi. Matn mazmunini so`zlab beradi va o`quvchilar qanchalik tushungani aniqlanadi.

Tanlangan matnda o`quvchilar ma`nosiga tushunmagan yoki imlosi hali yaxshi o`zlashtirilmagan so`zlar bo`lsa, o`qituvchi yozuv taxtasiga yozib qo`yadi. Lozim topsa, shu so`zlarning ma`nosi, talaffuzi va yozilishini juda qisqa izohlaydi.

O`qituvchi o`quvchilarga: «Men shu matnning birinchi bo`limini o`qib beraman. Siz tushunganingizni yozasiz. Shu o`rinda o`quvchilarga diktantni yozishda beriladigan erkinlik ham aytiladi. Men o`qiganimda siz diqqat bilan tinglasangiz, o`qigan bo`lim mazmunini tushunasiz va xatoga yo`l qo`ymay, to`liq yoza olasiz. Shuning uchun boshqa ishlarga chalg`imay, matn mazmunini puxta bilib olishga harakat qiling», - deb ta`kidlaydi.

O`quvchilar diqqati jalb qilinadi va birinchi bo`lim o`qib beriladi. O`quvchilar o`qilgan bo`lim mazmunini yozib bo`lganlaridan keyin, matnning ikkinchi bo`limi o`qib beriladi. O`quvchilar bu bo`lim mazmunini ham erkin ifodalab yozaditlar. Ish shu tarzda davom etadi.

Erkin diktantini tez-tez o`tkazish o`quvchilarni o`rganilgan grammatik shakllardan, imlo va tinish belgilari qoidalaridan amaliy ravishda foydalanishga, boshqalarning nutqini aynan yoki o`zlashtirib qo`llashga o`rgatadi, eshituv sezgilarini taraqqiy etishiga, ijodkorlik faoliyatlarining o`sishiga yordam beradi, ularni bayon yozishga tayyorlaydi.

Diktantning bu turi alohida ahamiyatga molik bo`lib, undan qanchalik ko`p foydalanilsa, o`quvchilarda mustaqillik shunchalik tez qaror topadi.

Tekshirish diktanti.

Tekshirish diktanti o`quv dasturining biror bo`limi o`rganilib, ta`limiy xilma-xil mashqlar bilan mustahkamlangach, ular o`quvchilar tomonidan qay darajada o`zlashtirganini sinash maqsadida o`tkaziladi.

Tekshirish diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o`quvchilari saviyasiga mos, o`rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so`zlar va tinish belgilari ko`proq bo`lgan bog`lanishili matn tanlanadi. Matnda o`rganilmagan qoida asosida yoziladigan va imlosi qiyn so`zlar bo`lmasligi kerak.

Tekshirish diktanti uchun bog`lanishli matnlardangina emas, balki o`rganilgan qoidalarni o`z ichiga olgan alohida terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin har ikki holda ham gaplardagi so`zlar soniga e`tibor berish lozim.

Tekshirish diktanti uchun tanlangan matnda so`zlar soni quyidagicha bo`lishi mumkin: 1-sinf o`quv yili oxirida 15 ta so`z; 2-sinf o`quv yilining birinchi yarmi oxirida- 25-30 ta so`z; o`quv yili oxirida – 35-45 ta so`z; 3-sinf o`quv yilining birinchi yarmi oxirida – 45-55 ta so`z; o`quv yilining oxirida – 55-65 ta so`z; 4-sinf o`quv yilining birinchi yarmi oxirida – 65-70 ta so`z; o`quv yili oxirida – 75-80 ta so`z.

Ko`rinib turibdiki, o`quv yili oxirida o`tkaziladigan diktantdagi so`zlar soni keyingi o`quv yili boshida o`tkaziladigan diktantdagi so`zlar soniga baravar keladi va asta ortib boradi.

O`qituvchi o`rganilgan va mashqlar bilan mustahkamlangan mavzuga mos matnni diktant o`tkazishdan bir necha kun oldin tanlaydi. Matnda shu sinf o`quvchilari uchun imlosi qiyin so`z bo`lsa, shu so`zlarning ma`nosi, talaffuzi va yozilishi diktantni yozgunga qadar bo`ladigan ona tili darslarida tushuntiriladi va mashqlar bilan mustahkamlanishi lozim. Buning uchun imlosi qiyin so`zni qatnashtirib gap tuzish, so`zning talaffuzi va yozilishini tushuntirish, imlosi qiyin so`z qatnashgan gapni grammatik tahlil qilish, shu so`zni bo`g`in ko`chirish qoidalariga ko`ra qismlarga bo`lib yozish kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin.

O`quvchilar tekshirish diktantini yozish haqida ikki-uch kun oldin, o`tilganlarni mustahkamlab, takrorlash darsida ogohlantiriladi. Imlo yoki tinish belgilariga oid qaysi qoidalarni o`qishlari kerakligi ta`kidlanadi.

Tekshirish diktanti o`quvchilarni oldindan ogohlantirmasdan ham o`tkazilishi mumkin. Bu o`quvchilarni ziyraklikka, darslarga doimo tayyorgarlik ko`rib yurishga undaydi va ogohlantirib boradi. O`qituvchidan oldindan ogohlantirmasdan o`tkaziladigan tekshirish diktanti matnini tanlashga alohida e`ibor berish talab qilinadi. Yuqorda ta`kidlanganidek, matnda shu sinf o`quvchilari yozishda -qiynaladigan yoki o`rganilmagan qoidalar assida yoziladigan imlosi qiyin so`zlar bo`lmasligi, agar shunday so`zlar uchrasa, uni o`qituvchi yozuv taxtasiga yozib ko`rsatishi talab etiladi. Yozuv taxtasiga yozib beriladigan so`zlar ikki yoki uchtadan oshmasligi kerak.

Tekshirish diktanti quyidagi tartibda o`tkaziladi: o`quvchilarning darsga tayyorgarligi ko`zdan kechirilgach, o`qituvchi o`quvchilar diqqat-e`tiborini jalb qilgan holda, diktant matnini bir marta shoshmasdan ifodali qilib o`qib beradi. Matndagi gaplarning ohangiga e`tibor qilib ifodali o`qish, tinish belgilarini to`g`ri qo`yishga, matnning mazmunini va tarbiyaviy ahamiyatini o`quvchilar

ongiga singdirishga yordam beradi. Buning uchun o`rni kelganda turli imo-
ishoralardan foydalanish, ovozni baland yoki pasaytirib, hatto shivirlab o`qib
berish ham mumkin. O`qituvchining gap ohangi va tinish belgilariga rioya
qilgan holda o`qib berishi tinish belgilarini to`g`ri qo`yishda o`quvchilarga
yordam beradi.

O`qituvchi matndagi ma`nosi qiyin so`zlarni yozuv taxtasiga yozib,
talaffuzi va imlosini qisqa izohlaydi. Keyin o`qituvchi yozuv taxtasiga,
o`quvchilar esa o`z daftarlriga sana, ish turi (tekshirish diktanti) va saralavhani
tartib bilan har birini xat boshidan yozadilar. Shundan keyin matn aytib
yozdiriladi. O`qituvchi sodda yig`iq gaplarni butunicha, sodda yoyiq gaplarni
so`z birikmalariga va qo`shma gaplarni sodda gaplarga aylantrib aytib turadi.
Shuni ta`kidlash kerakki, so`zni bo`g`inlab yoki so`zni so`zma so`z aytish
yaramaydi. Har bir gap yoki so`z birikmasi ko`pi bilan uch marta takrorlanishi
lozim. Aytish sur`ati shu sinf o`quvchilarining gaplarni yozib ulgurishini
hisoga olgan holda bo`lishi kerak.

Tekshirish diktanti yozib bo`lingach, o`quvchilar diqqatini jalb etib,
o`qituvchi matnni sekinroq sur`at bilan yana bir marta o`qib beradi. O`quvchi
o`z xatosini topsa, uni to`g`rilashga yoki tushirib qoldirgan so`zni yozishga
imkon beriladi. O`quvchilar o`z yozuvlarini mustaqil ravishda tekshirishlari
uchun matn o`qib bo`lingach, biroz vaqt (ikki-uch daqiqa) beriladi. Bu vaqt
ichida o`quvchilar o`z ishlarini tekshiradi, xtoalarini topsalar, to`g`rilaydilar.
O`qituvchi va o`quvchlarning har birini diqqat bilan kuzatib, ularning e`tibori
diktant matnidan boshqa narsalarga bo`inmasligiga ahamiyat beriladi.

O`quvchilar o`rtoqlari ishini ko`rishga, u yoki bu so`zni ular qnday
yozganini bilishga qiziqadilar, ba`zan o`rtog`i ishini kuzatib, o`zining to`g`ri
yozgan ishini o`zgartirish holatlari ham uchraydi. O`qituvchi bularning oldini
olish uchun o`quvchilarni ziyraklik bilan kuzatib turishi, ularning bunday
ishlarga chalg`ishiga yo`l qo`ymasligi kerak.

Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti o`quvchilar umumta`lim

tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rta ta'limning tarkibiy qismi bo'lgan boshlang'ich ta'limning tarkibiy tuzilishi, mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv yuklamasi hajmiga qo'yiladigan me'yor va talablar majmui bo'lib, u davlatning me'yoriy hujjati sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lga ega bo'idi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Davlat ta'lim standarti to'g'risidagi Nizom»ga binoan boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichlari belgilab qo'iladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda «Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. «Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da olti yoshga to'lgan har qanday bola aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan maktabda o'qish uchun tayyor bo'lganda maktabning moddiy-texnik bazasi bunday bolalarga ta'lim berish uchun yetarli deb hisoblanganda hamda o'qituvchilar pedagogik va

psixologik jihatdan olti yoshli bolalarning o'qitilishga tayyor bo'lganda ularni maktabga qabul qilinishini e'tirof etadi.. Buning uchun olti-yetti yoshli bolalar, maktabning moddiy texnik bazasi hamda o'qituvchilar pedagogik va psixologik talablar asosida qat'iy diagnostika qilinishi shart.

«O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomda: Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta'minlashga da'vat etilganligi ta'kidlanadi. . Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urfodatlarni o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'limga davlat standarti o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki, ta'lim sohalari bo'yicha belgilandi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatkichlar 7(6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqoza qilgan ta'lim mazmunining minimal miqdoriga asoslanib belgilandi. Boshlang'ich ta'limga davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mazmuni ko'lamini chegaralash, ta'lim sohalarini integratsiyalash imkonini beradi.

Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari taqoza qilinadigan ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning egallagan ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ayni shu boshlang'ich sinf

o'quvchilaridan ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan ta'lim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi. Boshlang'ich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi ko'zda tutilgan mazmuni, shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga butun e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim standarti ta'lim sohalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi, jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'lim sohaları kiritiladi. ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

II BOB. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNI DIKTANT YOZISHGA O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

2.1. Savod o'rgatish davrida zamonaviy usullardan foydalanishning ahamiyati o'ziga xos tomonlari

Bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish, davrida savod o'rgatish darslarini to'g'ri tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Analitik-sintetik tovush metodida o'qish va yozish darslari bir vaqtda, parallel olib boriladi. Bir soatda tovush-harf o'rganilsa, keyingi darsda o'sha tovushni ifodalovchi harfning yozilishi o'rgatiladi, har ikki turdagi darsni to'g'ri tahlil qilish uchun quydagilarga e'tibor beriladi;

1. Ta'limning didaktik jihatlariga e'tibor berilib, uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish.

2. O'quvchilarni yosh va fiziologik jihatlariga e'tibor berish.

3. Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish ishlarini keng qo'llash.

4. O'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor berish.

5. Alifbo va unga qo'shimcha materillardan unumli foydalanish.

Savod o'rgatish jarayoni o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham g'oyat ma'suliyatli davr bo'lib ulardan kuch, g'ayratni, bilimni talab etadi.

Bu davrdagi darslar qanchalik qiziqarli va ta'sirli tashkil qilinsa bolaning savodini chiqarish shunchalik oson kechadi, ularning o'qishni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Buning uchun muallimlar bolada motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim. Motiv kishini biror ish harakatga undovchi, da'vat, turtki. Motiv bolada bilim olish ishtiyoqiga va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo'lmaydi.

Motiv hosil qilishga ta'limiy o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib bolalar jiddiy sinov turadi. Bola yangi jamoa-maktab jamoasiga kirib boradi, endi shu jamoaning

asosi ekaninni his etishga intizomga yangi sharoitiga moslashishiga majbur bo'ladi.¹³

Bola kichkina bo'lishga qaramay uni bajaradigan ishlari ko'p. Bular maktab, o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab vazifalarni bajarish va boshqalar.

Muhimi o'yindan maktabga, kundalik majburiy va uzoq mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Buning o'zi bo'lmaydi; hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan bolalarga ham bu oson emas. Uydan maktabga kelgan bolalar uchun yana ham qiyindir. Ayniqsa 40-45 minutlik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi bola o'qishida maktabdan sovushi mumkin.

Shuning uchun ham o'qituvchilar bola faoliyatini qiziqarli tashkil etishga intilishlari motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim.

Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositalariga nazariy bo'limlar oson egallanadi; o'quvchilarning bilim olishda qiziqishlari ortadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqazishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Darlarda yangi pedagogik texnologiyalarni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda xar tomonlama muxokama etiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchining sinfda o'zini

¹³ Savod o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish <http://alifbe.zy.uz/11> Vasikova Shaxnozani maxsus sayti.

erkin xis qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jixatdan qoniqtririshi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Yangi pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq.

Ulardan interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, hamkorlikda kechadigan jarayon.

Interfaol metodlarning qo'llanishi darslarda beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilda olingan bo'sh o'quvchilarni ham bir oz bo'lsada, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. Demak, o'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o'quvchiga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Demak, siz qo'llanmoqchi bo'lgan interfaol usulini ko'rib bo'lgach, o'zingizga kerakli rasm, tarqatma material ko'rgazmailardan keragini qirqib olib konvertga solib qo'yishingiz, mavzularni o'rgatishda ishlatishingiz mumkin.

Interfaol usullardan foydalanib o'tganda quyidagilarga etibor berish lozim.¹⁴

1. O'quvchilar ishni bajarish uchun bilim, malaka, ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch xosil qilaman.
2. Guruhda sust o'quvchilar va bilimi kuchli o'quvchilar teng bo'lishiga e'tibor beraman.
3. Jamoa bo'lib o'rganish yoki muxokama vaqtida shovqin bo'ladi, bunga e'tibor bermayman.
4. Har bir guruhning ishiga e'tibor beraman, kerak bo'lsa yordam beraman.
5. Mustaqil fikr va g'oyalarni olqishlab, rag'batlantiraman.
6. Guruhlarga doimo aniq tushunarli yo'rliqlar beraman. Vazifani tez bajargan

¹⁴ Savod o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish <http://alifbe.zy.uz/11> Vasikova Shaxnozani maxsus sayti.

guruhga qo'shimcha topshiriq tayyorlab qo'yaman.

7. Guruhlarda ishlayotganda ularni kuzataman, eshitaman. Passiv o'quvchilarni qiziqtirib mavzuga jalb qilishga xarakat qilaman.

Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar" bahs-munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yozdam beradi.

4. Aqliy hujum - muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan samarali metoddir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammoga ko'p sonli to'g'ri yechimlar topishda yordam beradi. Aqliy hujum muammo yechimini topishda muqobillarini aniqlashga yordam beradi. Dars mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzuni, turli xil tomonlarini, qirralarini, qarama-qarshiliklarini ko'rsata olish, sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'zaro bahs-munozara yuritish, muloqotga chaqirish, munosabat bildirib, himoya eta olish, darsning yakunida mavzuning o'quvchilar tomonidan qanchalik qabul qilinganligi, o'zlashtirilganligini bilish, baholash maqsadida ushbu metodni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darsning maqsadi - birgalikda o'qitish ko'maklashuvchi uslubiy yo'llar, ya'ni o'quvchilarning jamoada o'qitish yo'li bilan bilim olishlari to'g'risida tasavvur berishdir.

Kichik guruhlarga bo'lish metodikasi - o'qituvchi tajribasi, mahorati, ijodiy yondashuv asosida turli xil usullar asosida bo'lishi mumkin. Masalan: sinf o'quvchilarini ranjitmaslik, kamsitmaslik, ularni estetik did nuqtai nazaridan, kelishmovchiliksiz, guruhlarda bo'lish maqsadida turli xil rivojlantiruvchi o'yinlar asosida yoki masalan; 6 xil rangda, rangli qog'ozdan har xil shaklda, kichkina hajmda, sinf o'quvchilarining jami sonini hisobga olgan holda, oldindan kesma shakl (doira, uchburchak, to'rtburchak, beshburchak va hokazo) tayyorlab qo'yiladi. Kesim shakli o'qituvchi mahoratiga bog'liq, har xil shaklda bo'lishi mumkin. Tayyorlab qo'yilgan rangli kesma shakllarni o'quvchilarga tarqatiladi (bu holda

har-bir o'quvchi, ixtiyoriy ravishda o'zi xohlagan rangdagi kesma shaklini tanlab oladi). O'quvchilar tanlab olgan kesma shakldagi ranglar asosida o'qituvchi, o'quvchilarni osongina guruhlariga ajratib oladi. Masalan:

Oq rang 1 -guruh

Yashil rang 2-guruh

Ko'k rang 3-guruh

Jigar rang 4-guruh

Sariq rang 5-guruh

Qizil rang 6-guruh

Interfaol usullardan foydalanib dars o'tishda:

O'quvchilar ishni bajarish uchun bilim, malaka, ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.

Guruhlariga bo'lishda o'quvchilarga "tazyiq" ko'rsatmang.


Har qanday sharoitda ham guruhlar bilan iliq munosabatda bo'ling. guruh a'zolarini kuzating.

Jamoa bo'lib o'rganish yoki muhokama vaqtidagi shovqinga ko'nikish uchun tayyorgarlik ko'ring. Baholash va mukofotlash tizimingiz guruhlar ishlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylab ko'ring. Muvaffaqiyatli guruh ish uchun guruhga mukofat tayyorlang (imkon darajasida). Guruhlar uchun berilgan vazifaning bajarilishiga yetarlicha vaqt bering. Boshqa guruhlarda nisbatan vazifasini ertaroq bergan guruhni band qilish yo'llarini o'ylab ko'rig. Mustaqil fikr va g'oyini olqishlang.

Interfaol metodidan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik, hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga «Asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iboratdir. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan, metodlardan biri bu

"Klaster" metodi ham o'quvchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bunda o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Masalan doskaga O'zbekiston so'zi yoziladi va doira ichiga olinadi. Bolalar turli fikrlar bildiradi va doira atrofiga yozishadi. Bu usulni ona tili darsida



“Kim – qayerda?” usuli

Kim – qayerda usuli barcha fanlarda qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar 30 – 40 nafarni tashkil etsa – o'tirgan joylarida 20 – 25 nafarni tashkil qilsa doska oldida doira shaklida turib olib bajarsa ham bo'ladi. Buning uchun hamma o'quvchilar ko'zlarini yumib turadilar, o'qituvchi o'quvchilarning har birini orqasiga ma'lum bir yozuvlarni yopishtirib qo'yadi. Ushbu yozuvlarni umumlashtiruvchi so'zlar xona devorlariga ilib qo'yiladi. Ko'zlarini ochishga ruhsat berilgandan so'ng, gapirish ta'qiqlanadi. Ana endi o'quvchilar gapirmasdan, o'zlarining orqalariga qanday yozuv ilinganligini bilmasdan xonaning qaysidir tomonidan o'ziga joy topishi kerak bo'ladi. O'quvchilar

gapirmasdan bir – biriga yordam berib joylarini topishadi.

Quyidagicha misol keltirishimiz mumkin:

1 sinf ona-tili darslarida alifbo mavzusini quyidagicha o'tkazish mumkin: Buning uchun alifbodagi xarflar aloxida qilib kesib olinadi va konvertga solib xar bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari Konvert ichidagi xarflarni partaga yoyib, so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak. Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qo'shimcha vazifalarni berish mumkin.

Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Unli tovushlarni aloxida yig'ing.
2. Undosh tovushlarni aloxida yig'ing.
3. Ismingizni yig'ishga xarakat qiling.
4. Yig'ilgan so'zlarni bo'g'inga ajrating.

Berilgan barcha topshiriqlar daftarga yozilishi kerak. Hamma vazifalar bajarib bo'linganidan so'ng guruhlar nima ish bilan shug'ullanganliklari va nimalarni bilib olganliklari so'raladi va umumlashtiriladi.

So'ng uyga vazifa beriladi. Xarf yozilgan varaqlarni o'quvchilarga tarqatiladi. Uyga shu xarfga so'zlar yozib kelishadi, keyingi darsda esa bu varaqlar doskada alifbo tartibida yopishtiriladi, muxokama qilinadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilar bilimlarni oson va tola o'zlashtirishlarida o'yinlarga alohida e'tibor qaratadi. Bugungi kunda qo'llanilayotgan o'yinlar pedagogik texnologiyalarning bir qismi sifatida darslarni yanada qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'limiy o'yinlarni savod o'rgatish davrida maqsadga muvofiq ravishda va uyushtirish endigina o'qishni, yozishni o'rganayotgan bolalarga diqqatlarini asosiy maqsadga qaratgan holda qiziqarli ish bilan band bo'lishillarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham savod o'rgatish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanishning ahamiyati kattadir.

O'yinlar oddiy jismoniy harakatdangina iborat bo'lmay ma'lum ohang, ritm, badiiy so'z, sujet, kompozitsiyalarga ega bo'lgan bolalarning moddiy mashg'ulotidirdir”

Bolalar yoshligidan o'yinlarga ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, uni yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erishadilar. Bu borada xalq og'zaki ijodi, salmoqli hissa qo'shadi. Bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, haraktiri, noetikasi, ishtirokchilarning hatti-haraklari shu xalqning mehnat va milliy traditsiyalari bilan, turmush kechirish sharoitlari, geografik yashash o'rnini, iqtisodiy va siyosiy talablardan rivojlanadi. Sinchiklab qaralsa, bola o'yinida kattalarning xulqi odatlari, mehnat qilish usullari, turmushda ko'zda tutgan maqsadlarning harakteri belgilari ko'rinib turadi. Cho'pon bolasining o'yinlari ma'lum ma'noda cho'ponning kasbini eslatadi desak, xato bo'lmaydi. Qizlar esa aksariyat onalarning uydagi mashg'ulotlarini takrorlaydilar.

Bugungi bolaning orzusi;

Injener bo'lish, ospono'par binolar, havo kemalari qurish, dengiz-okeanlarning sirini bilish, ularning ixtiyorida turli hil kitoblar, konstruktorlik o'yinchoqlari, o'yinlar gimnastika, futbol, hokkey, tennis, boks, shahmat-shashka, turist bo'lib tog'larga, vodiylarga, uzoq shaharlarga borish va shunga o'xshaganlari, bularning hammasi bolaning ertangi taqdirida, tanlaydigan kasb va hunarida ijobiy iz qoldirishi turgan gap.

O'zbeklar va ular bilan birga yashagan xalqlar va qabilalarning milliy o'yinlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar bizgacha XI-asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografik Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atu turk “ kitobi orqali yetib keldi. Devon muallifi O'rta Osiyo hudidida yashaydigan qabila va xalqlarning milliy tillariga, ayrim so'zlariga izoh berish orqali kishilarning mashg'ulotlarini va hatto bolalarining o'yinlarigacha tilga olgan, ularning qoidalariga ta'rif beradi.

Devondan bir misol keltiraman; Mo'ko'z-mo'ko'z bir xil bolalar o'yini shunday” bolalar tiz cho'kib, dengiz labida o'tiradilar. Sonlari orasida ho'l qush solib to'ldiradilar. Ulardan biri ona boshisi moko'z-moko'z deydi. Qolganlari

namoko'z nimaning mo'ngusi (shoxi) deb so'raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So'ng onaboshi shu nomlar orasidan tuya, eshak kabi shoxi yo'q hayvonlar ismini aytib chalg'itadi.

Bolalarning o'yin tanlashdagi didi o'zgarmoqda. Endi bolalarimiz jamoa bo'lib, ahillik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bilan g'alabani qo'lga kiritib bo'ladigan chaqqonlik, dovyuraklikni talab qiladigan o'yinlarni o'ynashmoqda. O'yinlarda vatanparvarlik ruhi yaqqol ko'rina boshladi. O'yin shartlarida boshlash, tomomlash, jazo, mukofot ham o'zgarishiga uchradi. Bu o'zgarishlari bilan, bolalar o'yin terminalogiyasi, milliy so'zlar hisobiga boyimoqda.


O'yinlar xalq bilim va tajribasining bitmas-tuganmas xazinasidir. Bu xazinani saqlovchilari esa xalqi bolalar o'yinlari materiallarini asosida shu o'yinlaridagi folklor elementlarini tutgan o'rnini aniqlash muhimdir, jumladan, o'yinlar savod o'rgatish davri o'qish darslarida amalga oshirishda muhim ta'limiy ahamiyatga ega savod o'rgatish o'qish darslarida amalgam ashirish bolani ortiqcha jismoniy zo'riqishdan saqlaydi, ulardan o'z kuchiga ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Savod o'rgatishda bajariladigan analitik va sintetik mashqlarni ham o'yin tarzida amalgam oshorishlozim. Bu ning zarur o'quv materiallari bor ularning ayrimlarini o'qituvchining o'zi ota onalar bilan birgalikda tayyorlaydi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutq tovushlari, harflar bilan am'aliy tanishibgina qolmay bo'g'inlardan so'z tuzish, so'z va qisqa gaplarni o'qish hamda yozishni o'rganadilar. O'quvchilrda birinchi sinfdayoq unli va undosh tovushlarni bir-biridan ajratish, o'xshash undoshlar va ularning harfiy aniqlash yondoshgan unlilarni shuningdek, tovush va bo'g'in tahlili gap tuzish bilan aloqador bo'lgan lug'at imloga doir ishlar, talaffuzdan tushib qoladigan undoshlar, qator keladigan unli va undoshoid imlo ko'nikmalarini o'stirib boriladi. O'quvchilarning nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishga, so'zni o'rinli va to'g'ri ishlatishga gap va bog'lanishli nutqqa to'g'ri tuzishga, ular orasida erishish uchun oqituvchi dars davomida qiziqarli o'yinlarining xilma-xil usullaridan foydalanish zarur.

Savod o'rgatish davrida asosiy metod analitik-sintetik metodidir. Qiziqarli o'yinlar shu metodga asoslangan bo'lishi lozim. Qiziqarli o'yinlar 3-5 minut davom etishi mumkin. 1- o'yin bu bo'g'in ko'chirishga doir. Bunda o'qituvchi tomonidan tuzilgan "Bo'g'in jadvali" dan hohlagan bo'g'in ko'rsatiladi. O'quvchilar shu bo'g'inni kesma bo'g'indan tuzadilar. Ikkinchi bo'g'inni tuzadilar.

Masalan: Lo-la, Sho-kir, Sho-di . Bu o'yin o'quvchilarning bo'g'indan so'zlar tuzish va bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'zlashtirishga yordam beradi. 2-o'yin O'qituvchi istalgan unli harfni ko'rsatadi. O'quvchilar shu unli tovushga bog'lanadigan tovush topib og'zaki ravishda so'z yasaydilar. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan so'zlarni doskaga yozib beradi.

Masalan:



Bu o'yinlar o'quvchilarning so'zni to'g'ri yozish talaffuz qilishlariga yordam beradi.

6-o'yin, O'qituvchi har bir qator partadan bittadan o'quvchini doska oldiga chiqarib, kesma harflardan bittadan harf beradi. Harf olgan o'quvchilarning qaysi biri so'z boshida shu harf keladigan 3 ta so'z topib doskaga chiroyli qilib yozsa, shu-shu o'quvchi g'olib chiqadi.

“A”

“B”

“S”

Ali

bolta

Soli

A'zam

Baxtiyor

Sobir

Adham

baliq

Soat

So'z va bo'g'inlarni o'qishga o'rgatishga o'rgatishda tovush harflarni alohida-alohida aytib o'qimaslikka, balki tovush harflarni bo'g'inda to'g'ri qo'shib

talaffuz qilishga soʻzlarni ogʻzaki nutqdagi kabi yaxlit holda tovushlar uygʻunligiga rioya qilib oʻqishga oʻrgatiladi deyiladi. Bu fikrni koʻpgina olimlarimiz tasdiqlashgan.

Boʻgʻinlab oʻqishning avzalligi quydagicha. Birinchidan: bola harflayotganda biror harfni tushib qoldiradi 2-3 ta harfning nomini aytib sanagach ichida biron-bir harfning nomini unitib oʻqishga xatoga yoʻl qoʻyadi. Fikri harflarni aytib soʻzni oʻqishga boʻladida, soʻz maʼnosiga eʼtibor bermaydi. Oʻqish uchun koʻp vaqt sarflaydi.

Ikkinchidan: soʻzning tovush tarkibi murakkab boʻlishi, juft soʻz boʻlishi, qoʻshma soʻz boʻlishi mumkin. Ularni bir tushuncha sifatida qabul qila olmaydi.

Uchinchidan: alifbening keyingi sahifalarida oʻquv materiallari koʻpiyib boradi; uni harflab oʻqish orqali dastur talabini bajarib boʻlmaydi.

“Kesma alifbedan ayniqsa alifbe davrinig ikkinchi va uchunchi bosqichlarida savod oʻrgatish darslarida eng asosiy koʻrgazmali qurol ham tarqatma materiallar sifatida qoʻllaniladi”- deyiladi. T. Ashrapovanning kitobida haqiqatdan ham kesma alifbe savod oʻrgatish boʻyicha, oʻyinga oʻrgatish boʻyicha uyushtiriladigan mashqlarda keng qoʻllaniladi.

Bunda soʻzlar qaysi tovush harf bilan farq qilyapti? Soʻz maʼnosida ham harf bormi? Har ikki soʻzning mʼnosini tushuntirish kabi savol topshiriqlarga javob olinishi mumkin.

un → i → n → oʻ → n

un → u → ch → u → z → u → k

qovun → s → ovun

Ikki soʻzlarda yaʼni bir boʻgʻinli, bir tovush harflardan iborat boʻlsa, bunda ham yuqoridagi ish turini qoʻllash mumkin.

Kesma harflar yordamida tuzilgan so'zlarda so'zlardagi bitta harfning o'rnini almashtirib yoki umumanharflarning o'rnini almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish mashqini ham o'tkazish mumkin.

M: Kalit-Tilak

Kesma harf bilan tuzilgan so'zdan bitta harfni olib qo'yib yangi so'z hosil qilish va o'qish

Mana-ana, elak-ela.

Bu kabi kesma harflar bilan so'z tuzish va o'qish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni so'zni to'g'ri va ravon nusxa ko'chirishga o'rgatadi.

Kesma harflar bilan quydagicha o'yin tashkil qilish mumkin.

Kesma alifbe orasida 1, 2, 3, Raqamlari yozib qo'yiladi. O'quvchilar tartib bilan terib chiqadilar va o'qiydilar.

$$1, 2 \longrightarrow o', n$$
$$1, 2, 3 \longrightarrow o, n, a$$

Bu musoboqa tarzida uyushtiriladi.

Kesma alifbe yordamida so'z tuzdirish ishini bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchiga bajartish mumkin. Buning uchun harf kassasidan bir harfning kichik va bosh shaklidan bir nechtdan bo'lishi kerak. Unli tovushni ifodalovchi harflar ko'proq tayyorlab qo'yilishi lozim.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish va to'g'ri o'qish malakalarini hosil qilishda bo'g'inlar jadvali ilova qilinadi. Bo'g'inlar jadvali alifbe darsligidagi o'quv materiallari asosida tayyorlanadi. Bo'g'inlar jadvalida bo'g'inlar bittadan berilgan. Lekin kesma bo'g'inlar ham bosma chiqarilgan.

Bo'g'inlar jadvalidan foydalanishdan oldin bo'g'inlar, kesma harflar bilan doska yoki partaga tuzdirilishi, o'qishni mashq qilinishi kerak. So'ng o'rganilgan bo'g'inlar asosida so'z tuziladi va o'qiladi. Bo'g'inlar yordamida so'z tuzishda turli xil mashqlar, o'yinlar uyushturish mumkin.

1. O'qituvchi ikki bo'g'inli so'z aytadi, o'quvchilar partalarida turadi va qo'l ko'tarib javob beradi. Bo'g'inlar jadvalidan bugungi darsda foydalanmaydigan bo'g'inlarni olib qo'yish lozim. Aks holda bolalar chalkashib qolishlari mumkin.

2. O'qituvchi sinfning bilim-ko'nikmasikasidan kelib chiqib, kesma bo'g'inlar bilan ishni tashkil etadi. O'quvchilar ancha ko'nikma hosil qilgan bo'lsa, yozilgan yuqoridagi kabi so'zlarni aytadi.

O'quvchilar so'z tuzish ishi bilan endi ish boshlagan bo'lsa, o'qituvchi so'zni bo'g'inlab aytadi, o'quvchilar kesma bo'g'inlardan uni tuzadi.

O-na , bo-la , da-la ...

3. O'qituvchi narsa rasmni ko'rsatib uning nomini bildiruvchi so'zning birinchi bo'g'inini aytadi. O'quvchilar qolgan bo'g'larini topib, so'z tuzadilar va o'qiydilar.

4. O'quvchilaraga biror so'z aytiladi. O'quvchilar uni kesma bo'g'indan tuzadilar. So'ng ikkinchi topshiriq beriladi.

a) birinchi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

b) oxirgi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

v) o'rtadagi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

d) bo'g'inlarni o'rnini almashtib, yangi so'z hosil qiling va o'qing.

5. O'quvchilarga topishmoq aytadi. O'quvchilar topishmoq javobini kesma bo'g'inlardan foydalanib yozadi va o'qiydi.

“Darvoza o'yini”

Stol ustida kesma bo'g'inlar qo'yiladi. Ikki o'quvchi darvoza hosil qilib doska tomonga qarab o'tiradi. 1-o'quvchi chiqib, kesma bo'g'inlardan tanalib ularni ma'lum tartibga keltirib so'z turadi va darvozadan o'tadi. Uning topshirig'i to'g'riligini tekshirish uchun darvozabonlar ham o'qib ko'radi.

To'g'ri bo'lsa o'tadi, xato bo'lsa o'tmaydi. Ularni o'tirganlar diqqat bilan tekshirib, kuzatib boradi.

“Tun-kun” o'yini.

O'qituvchi yoki o'quvchi alifbe sahifalaridagi so'zlarni kesma bo'g'inlar yordamida tuzayotganda so'zlarni kesma bo'g'inlar yordamida tuzayotganda "tun" deydi. Bolalar ko'zlarini yumib, boshini parta ustiga qo'yadi. Tuzib bo'lgach "kun" deydi. Bolalar boshini ko'tarib ko'zini ochadi. Tuzilgan so'zlarni o'qiydi. Kim birinchi o'qib bo'lsa, qo'lini ko'taradi.

Kesma bo'g'in va kesma harflar bilan birga ishlash ham mumkin. Bulardan asosan uch tovushdan tuzilgan so'zlarni tuzish va o'qishda foydalanish mumkin.

no+n ,	do's+t
no+k	lol+a

Do'st so'zi bir bo'ginli so'z ekani undan t ni ajratib bo'lmasligi biz o'qishga o'rganish uchun bu usuldan foydalanganimizni aytib o'tishim kerak. Umuman kesma harf, kesma bo'g'in asosida so'z tuzish va o'qish mashqlarini tashkil etish ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqtirishda, o'qishning ongli bo'lishida muhimahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni sezgirlikka, chaqqonlikka o'rgatadi. O'qituvchi ham vaqt sarflab, ko'proq samaraga erishadi. Kesma harf va kesma bo'g'inlar yordamida turli xilda qiziqarli mashq turlaridan, o'yinlardan foydalanish o'qituvchining izlanishini, ijodkorligi va maxoratiga bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish davri asosiy davrlardan hisoblanadi. Agar o'quvchi savod o'rgatish davrida yaxshi o'zlashtirsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga ega bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchi kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib jamiyat uchun, uning ravnaqi, xalqning farovon yashashi uchun jon kuydiradigan mutaxassis bo'lib kamol topadi.

Ta'lim sohasidagi muhim hujjatlar – «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009-yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» talablariga asosan yosh avlodga jahon ta'lim standartlari darajasida ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutilgan. Milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri komil

inson g'oyasi hisoblanadi. O'quvchilarni komil inson etib tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Komil inson asosiy g'oyasini amalga oshirishda savod o'rgatish davri muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qo'llanmada savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, savod o'rgatish davrining asosiy darsligi hisoblangan «Alifbe»ning afzalliklari, rang-barangligi ko'rsatilgan. Qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun dasturulamal bo'ladi degan umiddamiz

Maqollar - «Alifbe» bezagi. Ma'lumki, maqollar xalq og'zaki ijodi janri hisoblanadi. Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi.

Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasi, donishmandligi mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, dono, mehnatkash kishining biror voqea hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan umumlashma xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa hayotda hammaga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratiladi.

Maqollar ma'nosining teranligi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari bilan farq qiladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon qilishga o'rgatadi.

R. Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova, L. Shermamatovalarning «Alifbe» darsligida ham bir qancha maqollar keltirilgan.

Bolalarni do'stlikka, birodarlikka o'rgatuvchi, ularni ahil-inoq bo'lishga chorlovchi, do'stlikning buyuk kuch ekanligini ifodalovchi quyidagi maqollar berilgan:

Do'st bilan uying obod.

Do'stsiz boshim – Tuzsiz oshim.

Odob-axloq, bilimning afzalligi, bunday xislatlar insonni buyuk inson bo'lishiga xizmat qiluvchi ekanligini o'rgatuvchi maqollar:

Bilim – boylik kaliti.

Oltin olma – duo ol.

Oldin o'yla – keyin so'yla.

Vatanni sevish, ardoqlash, Vatan uchun xizmat qilish haqidagi maqollar:

Bulbul chamanni sevar,

Odam – Vatanni.

Hunarni asrash, hunarli bo'lish, uni avaylash, uni qadriga yetish, bekor yurmaslik, foydali ishlar bilan shug'ullanish haqida:

Hunar – hunardan unar.

Harakat, harakatda barakat.

«Alifbe»da berilgan yuqoridagi kabi ixcham, ta'sirchan, mazmunan boy maqollar darslikning ajoyib bezagidir. Bunday maqollar o'quvchilarga tovushlarni oson va qiziqarli o'zlashtirishlaridan tashqari:

- ularning dunyoqarashlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- odob-axloq me'yorlarini singdirish;
- Vatanga sadoqatli va muhabbatli bo'lishlari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni o'zlashtirishlarida juda ham asqotadi.


Xullas, ularni Vatanimiz kelajagi uchun jon fido qila oladigan komil insonlar bo'lib yetishishlarida muhim vosita bo'ladi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda asosiy davr savod o'rgatish davri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovush va harflarni qay darajada singdirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi taqozo


etiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida biz savod o'rgatish davrida «Improvizatsiya» va «Klaster» metodlarining turli ko'rinishlaridan namunalar keltirmoqchimiz.

Improvizatsiya. Bu metod «Klaster» metodining aksi bo'lib, turli o'xshash fikrlarni bir fikrga jamlashdan iborat. Masalan, doskaga «anjir» so'zini yozib, qaysi harf bilan boshlanishi so'raladi. Yana «anor», «archa», «arra», «ana» so'zlari ham yoziladi va qaysi harf bilan boshlanishi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar barcha so'zlarni «A» harfi bilan boshlanishini aytadi. O'qituvchi yozilgan so'zlarning barchasini o'rtadagi «A» harfi bilan tutashtiradi yoki «A» atrofiga jamlaydi:




Yoki yana bir namuna:




Bo'g'inlarni ham o'rtaga jamlab, so'z hosil qilish mumkin. Bu ham «Iprovizatsiya» metodi hisoblanadi.

Masalan:




Savod o'rgatish davrida «Klaster» metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Misollar keltiramiz:




Yoki boshqacha namunasi:



«Klaster» metodini savod o'rgatish davrida faqatgina harf, tovush, bo'g'inlar va so'zlar uchun emas, tovush va harflarni o'rgatishda rasmlardan ham tuzsa bo'ladi.

Masalan:



Xullas, savod o'rgatish davrida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning savodxon bo'lishlarida, DTS talablarida qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Savod o'rgatishda topishmoqlar. Savod o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish eng yaxshi mashq turlaridan hisoblanadi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Topishmoq janri xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyat hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Topishmoqlar narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi. Har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va «kim?», «nima?» so'roqlarida yashiringan javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Topishmoqlar mavzulari tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Ba'zi

topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

R. Safarova, M. Inoyatova, M.Shokirova va L.Shermatovalarning 1-sinflar uchun mo'ljallangan «Alifbe» darsligida ham bir qancha topishmoqlar berilgan. Darslikning 41-sahifasidagi «Suyamasang turolmas, sen minmasang yurolmas», 45-sahifasidagi

«Sh»dan boshlanar oti,

Asal kabi sharbat.

Bilsang nomin ayt, Ali?

- Ha, bilaman -

47-sahifasidagi:

Yashil to'nli bolalar,

Makonidir dalalar.

Chirsillaydi tishlasa,

Bo'lar osh bilan yesa.

48-sahifasidagi:

«Qat-qat qatlama,

Aqling bo'lsa tashlama».

49-sahifasidagi:

«Boshi taroq, dumi o'roq».

«Men yuraman, u qoladi».

51-sahifasidagi:

«Bir parcha patir – olamga tatir».

«Ichi bo'yoq

Sirti tayoq».

«Usti tosh, o'sti tosh, o'rtasida chandir bosh» kabi topishmoqlar shular jumlasidandir. Bolalarga topishmoqlarning javobini tasavvur qilishlari va topishlari oson bo'lishlari uchun velosiped, shaftoli, turp, kitob, xo'roz, iz, oy, qalam, toshbaqalarni rasmlari ham berilgan. Xullas topishmoqlarda xalq

donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmuni va ifoda shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning fikrlar qobiliyatlarini o'stiradi.

Ayniqsa savod o'rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo'ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo'ladi.

Savodxonlikka hissa qo'shayotgan ertaklar. Xalq og'zaki ijodidagi eng qiziqarli va rang-barang janr ertakdir. Ertakni nafaqat bolalar balki kattalar ham sevib eshitadilar. Demak, ertak mazmunan boy, betakror va ta'sirchan janr hisoblanadi. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixiy-ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Xalq ertaklarida el-yurti ko'z qorachig'iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug'lanadi, to'g'rilik egrilik ustidan, yaxshilik yomonlik ustidan doimo g'alaba qozonadi. Ertakning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u kichik maktab yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichiktoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonchani ham boqish, asrab-avaylash lozim ekanligini chuqurroq his qiladilar.

R. Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova va L. Shermamatovalarning «Alifbe» darsligida ham o'quvchilarni savodini chiqarishga yordam beradigan bir qancha ertaklar, ertaklardan rasmlar berilganki, bu ertaklar, rasmlar o'quvchilarni yanada ilmga qiziqishlarida yordam beradi.

Darslikning 18-sahifasida «Qaynar xumcha» ertagiga ishlangan rasm, 31-sahifasida «Bo'ri bilan turna» ertagidan parcha va ertakka ishlangan rasm, 34-sahifasida «Bo'ri va tulki» ertagidan parcha va rasm, darslikning mustaqil

o'qish uchun berilgan sahifalarida «To'g'ri yo'l», «O'rgimchak va ipak qurti», «Bo'ri bilan echki» ertaklari berilgan.

Xullas, «Alifbe» darsligida berilgan ertaklar orqali o'quvchilarning

- dunyoqarashlarini shakllantirish va rivojlantirishga;
- ularning tabiatga muhabbatlarini oshirishga;
- axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga;
- yaxshilik yomonlik ustidan, to'g'rilik egrilik ustidan doimo g'alaba qozonishga;
- ilmga qiziqtirishga;
- tovush va harflarni oson o'zlashtirishlariga;
- so'z ma'nolarini bilib olishlariga muvaffaq bo'lamiz. Bu esa o'quvchilarni bilimdon, zukko, to'g'riso'z va vatanparvar bo'lib yetishishlarida eng yaxshi samaradir.

2.2. Interaktiv usullardan foydalanib diktant yozishga o'rgatish darslarini tashkil etish

Respublikamizda ta'lim sohasida mustaqillik yillarida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar hozirgi kunda o'zining samarali natijalarini ko'rsatmoqda. Yoshlarimiz orasida dunyo miqyosidagi tanlovlar, olimpiada va musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallayotgan iqtidorli yoshlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu g'alabalarning barchasiga albatta, inson kamolotining poydevorini yaratuvchilar sababchidirlar.

Oilada birgina farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onalar ba'zida o'z farzandining qiliqlaridan bezor bo'ladi. Ular farzandini «bog'chaga berib, ancha qulog'im tinchib qoldi» deydilar.

Maktabga borgandan keyin esa ular endi «farzandim maktabga borib, ancha bosilib qoldi» deydilar. Buning boisi nimada?

Bolaning maktabga borib ancha bosilib qolishi sinf o'qituvchisining savod o'rgatishining pedagogik asosini yaxshi bilishi va unga suyanishidir.

Maktabga kelgan bolada savod o`rgatishning tayyorgarlik davrida maktabga kelib-ketish odobi maktabning ichki tartib qoidalari kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish qoidalari o`rgatiladi. Bunda o`qituvchi o`quvchilarni bir-biriga taqqoslashi yoki eng intizomli, odobli, tartibli o`quvchini namuna, ibrat qilib ko`rsatishi eng yaxshi usullardan. Chunki har qanday yosh bola yaxshi so`zning, ayniqsa maqtovning rag`batning yoki arzimagan bo`lsa ham biror narsaning gadosi bo`ladi. Savod o`rgatishning asosiy (Alifbo) davrida o`qituvchi «Alifbo» darsligidagi har bir so`zning ma`nolarini tushuntiradi, har bir rasmning nima ekanligi, uning ijobiy xususiyatlari va o`quvchilarning unga nisbatan munosabatlari qanday bo`lishini o`quvchilarga ijodkorlik ruhida singdiriladi. Demak, bunda o`quvchi savod chiqarish bilan birgalikda o`zining ma`noviy jihatidan ham saviyasini oshirib boradi.

Kuzatuvlarimiz shuni isbot etadiki, qaysi o`qituvchi o`quvchilarga ta`lim berish jarayonida ularning tarbiyasiga ham alohida e`tibor bergan bo`lsa, o`sha sinf o`quvchilari boshqa sinf o`quvchilaridan tarbiyaviy tomondan ajralib turadi.

Demak, o`qituvchining savod o`rgatish jarayonida pedagogik asosga suyanishi:

- o`quvchining yaxshi talim olishi;
- hayotdagi voqea hodisalarga teran ko`z bilan qarab, ijobiy munosabatda bo`la olishlari;
- hayotda o`z o`rnini topib, o`z oilasi, xalqi Vatani uchun jon fido qila oladigan, fidoiy inson bo`lib yetishishlarida eng samarali asos bo`ladi.

Rasmlarning pedagogik qimmat. Ta`lim sohasidagi dapsturulamal hujjatlar «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», 2004-2009 yillarga mo`ljallangan maktab ta`limini rivojlantirish haqidagi davlat umummilliy dasturi talablariga asosan yosh avlodni har tomonlama yetuk yoshlar etib tarbiyalash hisoblanadi.

«Alifbe» darsligidagi rasmlar ham o'quvchilarni yuqoridagi talablar asosida tarbiyalash uchun katta xizmat qiladi. O'quvchilarni rasmlar orqali Vatan haqidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqatlarini oshirish, Vatanimizning go'zal tabiati, tabiiy boyliklari, shirindan shakar nozu-ne'matlarini qadrlash, komil inson bo'lish maqsadlarini amalga oshirish uchun rostgo'ylik, mehribonlik, do'stlik, ahillik, bilimdonlik kabi fazilatlarga ega bo'lish kabi maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Quyida ba'zi rasmlarning pedagogik qimmati haqida fikr yuritamiz.

Darslikning dastlabki sahifasida Mustaqillik bayrami tasvirlangan lavha, ikkinchi sahifasidagi Bilimlar kuni bayrami haqidagi rasm, 36-sahifadagi Vatanimiz gerbining rasmi, 42-sahifadagi Xumo qushining rasmi, 58-sahifadagi «Vatanim» she'riga ishlangan rasm, 72-sahifadagi «Gerbdagi qushning aytganlari» matniga ishlangan rasmlar o'quvchilarga Vatanimizning bugungi kundagi jamoli, ravnaqi haqida Vatanimizning ramziy belgilari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Vatanni sevish va ardoqlash haqidagi bilimlarini singdirishda beqiyos xizmat qiladi.

Yana darslikning 6-sahifasidagi «Kuzgi ishlar» deb nomlash mumkin bo'lgan qiziqarli rasm uning ostidagi karam, sabzi, oshqovoq, bodring, tarvuz, baqlajon rasmlari, 7-sahifadagi bolalarning bog'da mevalarni terayotganligi haqidagi rasm va nok, uzum, behi, olxo'ri, shaftoli rasmlari, 9-sahifadagi go'zal tabiat manzarasi, 11-sahifadagi ari, ayiq, anor, anjir, non rasmlari o'quvchilarga Vatanimizning jannatmakon o'lka ekanligini, uning boy va go'zal tabiati, unda pishadigan darmondorilarga boy bo'lgan har xil mevalar haqidagi tushunchalarni beradi, Vatanimizga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshiradi.

Darslikning 10-sahifasidagi non yopish haqidagi, 19-sahifadagi shifokor, chevarning, kitob o'qiyotgan qizning, 20-sahifadagi bolaning kekxa odamga salom berib turgani haqidagi rasm, 21-sahifadagi buvining nabirasiga nasihat qilayotgani to'g'risidagi, 22-sahifadagi opa va singilning dars

tayyorlayotganligi, 24-sahifadagi bolalarning sport bilan shug'ullanayotgani, 39-sahifadagi bekatda bir bolaning kekxa odamga joy berayotgani, 43-sahifadagi bolaning kekxa odamning ko'tarishib ketayotgani haqidagi rasmlar orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, kelajakda Vatan ravnaqi uchun zarur bo'lgan mutaxassis bo'lishini, ularni odobli, kitobni sevadigan, o'zidan kattalarni hurmat qiladigan, ularning og'irini yengil qiladigan, ma'naviy barkamol bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa ertaklarga ishlangan rasmlar bolalarni vatanparvarlikka, to'g'riso'zlikka rostgo'ylikka va mehribonlikka undaydi.

Xullas, «Alifbe» darsligidagi rasmlar orqali o'quvchilarni vatanparvar, yurtni sevadigan, Vatan ravnaqi uchun qayg'uradigan, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan komil insonlar etib tarbiyalashda muhim pedagogik qimmatga ega.

Bu fazilatlarni o'quvchilarga rasmlar orqali singdira olish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Yozuv darsi alifbe darsining davomi hisoblanib, o'quvchilar alifbe darsida o'rgangan bilimlarini yozuv darsida mustahkamlaydilar. Ya'ni alifbe darsida o'quvchilarga yangi harf o'rgatilib, bu harf asosida bo'g'in hosil qilish, bo'g'inlardan so'z hosil qilish ko'nikmalari shakllantirib boriladi. Yozuv darsida esa shu harfning yozma shakli o'rgatib boriladi. Shu o'rinda aytish joizki, yozuv darsida ta'limiy diktantning turi **lug'at** diktantidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

I CHORAK

LUG'AT DIKTANTI

O. Ot.

T. Ota.

A. Ani it. Ana tom, it, tom.

N. Ona, ana, non.

I. In ana.

M. Mol, mana, malla. Olim, mana olma.

L. In, ol, ola. Ali, ana Lola.

B. Bobo, bola, bodom, butun. Adiba, Bilol bodom oldi.

K. Kalit, kakku, ikki. Komil, Kamol –aka-uka.

R. Rom, randa, arra, kurak, Abror, Bobur

O’. O’t, o’tin, to’ti, o’nta, ko’l. O’ktam, ana katta ko’l.

D. Don, dona, dada. Damin donni oldi.

U. Un, tun, tol, tutun. Lola ana un.

Y. Yo’l, yo’lak, ko’ylak, tuya. Oydin yo’lda o’ynadi.

E. Ekin, elak, etik. Men un eladim.

G. Gul, guldon, gulzor, guldor, gilam. Gulsum gul ekdi. Gullar o’sdi.

NG. Otang, onang, opang, akang, singling. Tongda nonushta tayyorladim.

2-chorakda ham huddi shunday tarzda lug’at va izohli diktant o’tkaziladi.

2.3. Savod o’rgatish davrida ta’limiy diktantlardan foydalanish usullari

Savod o’rgatish davrida o’quvchilarni bilim olishga qiziqтира olish, yaxshi tarbiyalay olish muhim. Buning uchun ta’limiy o’yinlardan foydalanish o’rinlidir. Ta’limiy o’yinlar bolalarni ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularni qiziqib o’zlashtirishlariga, ma’naviy barkamol bo’lishlarida ahamiyatlidir.

«Harfni esda saqlash» o’yini. Bu o’yinning asosiy maqsadi o’quvchilarni tovushlarni to’g’ri talaffuz etish va to’g’ri yozish, esda saqlab qolishga o’rgatish hisoblanadi. O’qituvchi o’yinning o’tkazilishi haqida tushuncha beradi va u oldingi darslarda o’rganilgan O, A, D, F harflari ishtirok etgan rasmlı kartochkalarni tarqatadi. O’zida esa O, A, D, F, harflari yozilgan kartochkalarni olib qoladi. O’quvchilarga olcha, olma, ot, anor, ari, archa, ayiq, delfin, daraxt, fil, fontan rasmlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi.

O'quvchi stolga O harfli kartochkani qo'yadi. O'quvchilar shu harfga mos rasmlı kartochkani harf yoniga qo'yadilar va rasm nomini xor bo'lib aytadilar. Aytib talaffuz qilgan so'zlarini daftarlariga yozadilar. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yin keyingi darslarda yangi o'tilgan harflar bilan o'tkaziladi. O'yinga yetti-sakkiz daqiqa vaqt ketadi. O'yinni boshqa turli variantlarda ham o'tkazilishi mumkin. O'yin orqali o'quvchilar harflarni xotirasida yaxshi saqlab qoladi va husnixat asosida yozishga o'rganadilar.

O'yinning boshqacha varianti

O'qituvchi o'quvchilarga istalgan harfni, masalan, A va O harflarini ko'rsatadi. O'quvchilarga unli harfga bog'lanadigan bo'g'in topib so'zlar tuzdiriladi. Bu ishlar og'zaki yoki yozma bajarilishi mumkin. Masalan:



Alifbe darsida bunday o'yinlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning faolligi oshirib boriladi. Yozuv darsida esa shu o'yinlar asosida **“Yoddan yozuv”** diktantini qo'llasahimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Doskaga alifbe darsida o'rganilgan harflar terib qo'yiladi. O'quvchilar shu harf asosida o'qigan so'zlarini yodga olib daftarlariga yozadilar.

«So'zni tez o'qish» o'yini

Bu o'yin orqali o'quvchilarda so'zlarni tez o'qish ko'nikmalari orttiriladi. O'qituvchi so'z yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Har bir o'yin ishtirokchisi o'ziga ajratilgan kartochkalarni olib, navbati bilan o'qiydi. Agar o'quvchi kartochkadagi so'zni noto'g'ri o'qisa, boshqa kartochka olmaydi. Qaysi o'quvchi so'zni to'g'ri o'qisa, shu o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi. Masalan, sinfda 24 ta o'quvchi bo'lsa shulardan birinchi kuni 12 nafar o'quvchi qatnashadi, ya'ni o'qituvchi 12 o'quvchiga kamida 24 ta kartochka tayyorlaydi.

Masalan:

Ona
Vatan

Non
Go'zal

Nok
Maktab

Olim
Mana

Qaysi o'quvchi so'zlarni to'g'ri va tez o'qiy olsa o'sha rag'batlantiriladi. So'zlarni o'qish uchun 6-8 daqiqa vaqt beriladi.


Yozuv darslarida, o'rganilgan harflar asosida so'zlar o'qiladi. O'quvchilarga **ta'kidlab** aytiladi: faqatgina ko'rsatilgan harflar ishtirok etgan so'zlarni yozishlari ta'kidlablanadi.

Masalan: A-Ana, Ali, Ona, Ota, Buvi, Momo ...

O'yinning boshqacha varianti

O'qituvchi bir necha: kabutar, lola, o'rik, banan va boshqa bir qancha so'zlarga oid rasmlarni tayyorlaydi. O'qituvchi lola rasmini ko'rsatadi. O'tuvchilar qo'llaridagi so'zlar yozilgan kartochkalardan «lola» deb yozilgan kartochkani topib ko'rsatadi.

Masalan:



Yozuv darsida bu o'yinni **rasm diktanti** orqali davom ettirish mumkin. O'quvchilarga yakka narsalarning rasmlari ko'rsatilib nomlarini aytiriladi va daftarlariga vergul qo'yib yozdiriladi.

Yana bir turida quyidagicha rasm ko'rsatilib, rasmda nimalar tasvirlanganini yozing deb aytilish mumkin, rasmdagi kishilarga ism tanlang va yozing deb ham topshiriq berish mumkin. O'quvchilar rasmdagilarni buvi, aka,

uka, kitob, qora, oq, ko'k, pushti, zangor, havo rang deb yozadilar. Ismlarni esa bosh harflar bilan Adiba buvi, Ahror aka va Abror deb yozishlari mumkin. Bu rasm diktanti orqali o'quvchilar o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida o'tkaziladi.





Savod o'rgatishda tovush va harflar haqidagi she'rlardan foydalanish. Savod o'rgatish darslarini rang-barang va qiziqarli tashkil etish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Bu davrda o'qituvchi faqat «Alifbe» darsligiga suyanib qolmasligi kerak. Chunki «Alifbe»ni o'quvchi har kuni uyida ham bir necha marta ko'radi. Bu davrda tovushlar va harflar haqidagi she'rlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bolalarning sevimli shoirasi Kavsar Turdievaning «Sehrli harflar oroli» turkumidagi she'rlari juda qo'l keladi. Shoiraning ajoyib she'rlaridan namuna keltiramiz:

Bo'ling harfga hurmatda

«Alifbe»da nechta harf,
O'yla, aqling qilib sarf!
Go'yo ko'zgu, burni bor,
Har bir harfning o'rne bor.

Adashtirmagin zinhor,

Savod senga bo'lsin yor.
Bir harf o'zgarsa agar,
«Ko'r» to'satdan bo'lar «kar».

Adashtirsang «I»ni bir,
Kar bo'lib qoladi «kir».
«B» harfsiz gavjum «bozor»,
Keltirar dilga «ozor».

Yugurgan chopqir «jayron»,
Bir harf ila bo'lur «vayron».
Hatto sog'lom, kuchli «fil»,
Harf o'zgarsa, bo'lar «sil».

«Pul» aylanadi «gul»ga,
«Tol» aylanadi «tul»ga.
Hattoki shirin «bola»,
«B» harfsiz bo'lar «ola».

Shunday holda bo'ldim duch,
Bitta harfdan hatto «kuch»,
O'zgardi-yu bo'ldi «puch».
«P» qochdi-yu, qoldi «uch».

Savod o'rgatish davrida yana «Bilimdon» jurnalidan ham unumli foydalanish mumkin. jurnalning sahifalarida tovush va harflarning xususiyatlari haqida qiziqarli she'rlar, rasmlar berilgan.

Masalan: Lobar bozorga bordi,	L
Layloga lenta oldi.	I
B Bog'bon boqqa boradi,	
b Bog'da behi teradi.	
Kosa–kosa suv ichdim,	K
Sohilni uzoq kechdim.	k
J Jo'ja bo'ladi otin,	



Yozuv darslarida esa bu o'yinni davom ettirish uchun **yoddan yozuv diktantidan** foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Diktantning bu turini o'quvchilar juda sevib, qiziqib bajaradilar.

Kichik bir she'r, matn yoki topishmoq doskaga husnixat asosida yozib qo'yiladi. Bosma harflar bilan ham ekranda slayd asosida ko'rsatishimiz ham mumkin. Tushunarsiz so'zlar izohlab tushuntiriladi. O'quvchilar uni bir necha marta o'qib yod oladilar va daftarlariga yozadilar.

A

Ayiq asal yaladi,
Asal ari taladi.

F

Fe'li yomondir uni,
Qavat-qavatdi to'ni.
Yechsang agar to'nini,
Yig'latadi bil shuni.

P

Pastakkina bo'yi bor,
Mallagina to'ni bor.

Bundan tashqari o'quvchilar bilan tabiat qo'yniga sayohat uyushtirib, muzey va istirohat bog'lariga, qo'g'irchoq teatrlariga borib u erda ko'rgan narsalarini daftarlariga tushirishlarini aytib biz bu darsda **ijodiy diktant**dan foydalanishimiz mumkin. O'quvchilarda diktant yozishda paydo bo'lgan malaka keyinchalik bayon, insho yozishga zamin hozirlaydi.

Demak, savod o'rgatish davri alifbe darslarida tovushlar va harflar haqidagi qiziqarli she'rlardan foydalanish o'quvchilarning tovush harflarni, bo'g'inlarni, so'zlarni oson va qiziqib o'zlashtirishlarida muhim vosita bo'ladi.

TAJIRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALARI

1. Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik

2. Tajriba ishlari

3. Tajriba-sinov ishlari tahlili.

1. Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik.

Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik asosan tajriba uchun obyekt tanlash, ularni qo'yilgan muammo yazaridan holatlarini o'rganish, hamda natijalarni solishtirish uchun turli sinovlar o'tkazishdan iborat bo'ldi. Tajriba uchun men obyekt sifatida Pop tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 1-a va 1-b sinflarini belgilab oldim. So'ngra ushbu sinf o'qituvchisi hamda boshlang'ich sinfning boshqa o'qituvchilari bilan o'quvchilarning savod o'rgatish jarayoni yuzasidan savol-javob o'tkazdim.

Ularga quyidagi savollarga javob berdilar

- Savod o'rgatish davrida qanday muamolarga duch kelgansiz?
- Savod o'rgatish jarayonida dars samardorligiga erishishi uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz?
- O'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda qanday usullardan foydalanasiz?
- Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida qo'shimcha qanday choralar ko'rasiz?
- savod o'rgatish davri yozuv darslarida ta'limiy diktantlardan foydalanasizmi? Qaysi turlaridan?


O'qituvchilar ushbu savollarga atroflicha javob berdilar. Asosan javoblar quyidagicha bo'ldi.

O'quvchilar savod davrida asosan orfografik hamda punktuatsion xatolarga yo'l qo'yadilar. Ya'ni tinish belgilarini to'g'ri qo'llashda hamda aytilishi va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar, x va h harflarni farqlashda va boshqalar. Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarni savodli yozishlarini amalga oshirish uchun chiroyli yozuv daqiqalari, ayrimlari tekshiruv diktantidan foydalanadilar. O'quvchilarni yozish malakalarini yanada rivojlantirishda hech qaysi o'qituvchi qo'shimcha

choralar ko'rmaydi va buni lozim deb hisoblamaydi. Ta'limiy diktant turlaridan ham deyarli foydalanishmaydi.

O'qituvchilar bilan olib borilgan ushbu tarzdagi anketa-so'rov ishlaridan so'ng har ikki sinfdan ularni qay darajada savodli yozish malakalariga ega ekanliklarini tekshirish uchun diktant o'tkazildi. Ushbu diktantda o'quvchilarni to'g'ri yozish malakalari va savodxonlik darajasi 5 ballik tizimda baholandi. Har ikki sinfdan olingan natijalar quyidagicha bo'ldi.

Ushbu ko'rsatkichlar tajriba – sinov natijasidan avvalgi holatdagi ko'rinishi



Sinfi	A'lo	%	Yaxshi	%	Qoniqarli	%	Qoniqarsiz	%
1-"A" sinf-40 ta	12	30	14	35	13	32,5	1	2,5
1-"B" sinf-40 ta	11	27,5	13	32,5	14	35	2	5

Ushbu natijalar olinib tahlil qilingach tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

2.Tajriba-sinov ishlari. Yuqoriddagi tahlillar asosida tajriba sinov ishlari boshlab yuborildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan oldin 1-a sinfini tajriba-sinov sinfi, 1-b sinfini kuzatuv-nazorat sinfi qilib belgilab olindi.

Tajriba ishlarida o'quvchilar savodxonligini oshirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab olindi:

- O'quvchilarni savodli yozishda duch keladigan muammolarini aniqlash.
- Ular yozish jarayonida yo'l qo'yayotgan xatolarni o'rganish.
- Dars jarayoniga pedagogok texnologiyalar, interaktiv usullarni joriy qilish.

Shundan so'ng tajriba sinfida ta'limiy diktantlardan foydalanib, interaktiv metodlar asosida tashkil etildi. Sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar" bahs-munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yozdam berdi. Darslarda ta'limiy diktantning lug'at diktanti, ta'kidiy diktant, rasm diktanti, ijodiy diktant turlaridan keng foydalanildi.


Aqliy hujum - muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan samarali metoddir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammoga ko'p sonli to'g'ri yechimlar topishda yordam beradi. Aqliy hujum muammo yechimini topishda muqobillarini aniqlashga yordam beradi. Dars mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzuni, turli xil tomonlarini, qirralarini, qarama-qarshiliklarini ko'rsata olish, sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'zaro bahs-munozara yuritish, muloqotga chaqirish, munosabat bildirib, himoya eta olish, darsning yakunida mavzuning o'quvchilar tomonidan qanchalik qabul qilinganligi, o'zlashtirilganligini bilish, baholash maqsadida ushbu metodni qo'llash muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu darsning maqsadi - birgalikda o'qitish ko'maklashuvchi uslubiy yo'llar, ya'ni o'quvchilarning jamoada o'qitish yo'li bilan bilim olishlari to'g'risida tasavvur berishdir.

Oquvchilarning darsga qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida "Kim – qayerda?", "Charxpalak" kabi metodlardan, "Kim – qayerda?" usuli "Klaster", "Tun-kun" o'yini, «Harfni esda saqlash», «So'zni tez o'qish» kabi didaktik o'yinlardan ham foydalanildi. Ayniqsa bunday o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini, o'quv faolligini yanada oshirishga xizmat qildi.

Ushbu tarzda olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan so'ng qayta sinov ishlari o'tkazilib, o'quvchilarni savodli yozuv malakalari tekshirib ko'rildi. Qayta sinovda

har ikki sinf o'quvchilariga "Rasm diktanti" va "Ijodiy diktant yozish topshirildi. Natijalar yuqoridagidek 5 ballik tizimda baholandi.

Ushbu ko'rsatkichlar tajriba – sinov natijasidan keyingi holatdagi ko'rinishi



Sinfi	A'lo	%	Yaxshi	%	Qoniqarli	%	Qoniqarsiz	%
1-"A" sinf-40 ta	14	35	16	40	10	25	0	0
1-"B" sinf-40 ta	12	30	14	35	13	32,5	1	2,5

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki 1-a sinfidagi o'zlashtirish samaradorligi 62% ni tashkil qilgan. Bu esa tajribadan oldingi holatdan 4% ga o'sgan.

Yuqorida keltirilgan jadvallar va diagramma ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki olib borilgan tajriba-sinov ishlari o'zining samarali natijalarini berdi va o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda yuqoridagi usullardan foydalanish oqali biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimiz mumkin ekan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ma'lumki savod o'rgatish jarayoni o'quvchilarning nafaqat xat savodlarini chiqarish, Kelgusida ularning fe'l –atvori, ko'plab ko'nikmalar va odatlarning shakllanishida ilk bosqich sanaladi. Shunday ekan biz, o'quvchilarni chiroyli va savodli yozishga o'rgatish orqali ularda iroda, tartiblilik, ozodalik kabi sifatlarni shakllantirishga erishishimiz mumkin. O'quvchilar savodli va to'g'ri yozish oqali e'tiborli, irodali, tartibli bo'lishga o'rganib boradilar. Bu esa jamiyatimizda shakllanayotgan har bir shaxsga tegishli bo'lgan fazilatlardan biridir.

Savod o'rgatish jarayonida ta'limiy diktantlardan foydalanishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishda biz ana shu masalani ko'rib chiqdik. Unda asosan o'quvchilarni savodli va husnixat asosida yozishga o'rgatish masalalari, darslarni interaktiv usullar hamda didaktik o'yinlardan foydalanib tashkil etish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi.

Ilmiy metodik adabiyotlar, tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlili hamda boshlang'ich ta'lim jarayonini kuzatishlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan til ta'limi va tarbiyasi o'zgacha yo'nalish, o'zgacha usullar bilan boyitib, til sofliqi, adabiy til me'yorlarini singdirish kabi zaruriy mashqlar vositasida olib boriladi. Shuningdek, savod o'rgatish jarayonida ham pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullariga tayanib ish ko'rmoq joiz hamda bolalar idrok eta oladigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ular qisman maxsus o'quv qo'llanmalar mazmuniga kiritilishi zarur.

Boshlang'ich ta'limining samaradorligini oshirish omillaridan biri bolalarning savodli yozish malakalarini tarbiyalashdir. Buni 1-sinfdan boshlanib, yuqori sinflarda ham davom ettirilishi lozim.

Oquvchilarni savodli yozishga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish orqali samaradorlikka erishishimiz mumkin:

- bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish;
 - dars jarayonida, darsdan keyingi mashg'ulotlarda bolaning doimo yaxshi kayfiyatda bo'lishini ta'minlashga;
 - Oquvchilar yozish jarayonida eng ko'p yo'l qo'yayotgan xatolarga e'tibor berish;
 - Savod o'rgatish jarayonida interaktiv usullardan foydalanish.
 - Yozuv darslarida imloni o'rgatishda diktant yozdirib turish – o'quvchilarning savodxonligini oshirishga yordam beradi.
 - Bolalarning eshitish, ko'rish qobiliyatlarini rivojlantirishda ularni diktant yozishga o'rgatish foydalidir.
- Darslarga mana shu tarzda yondoshish orqali biz o'quvchilarni savod o'rgatish davrini muvaffaqiyatli yakunlay oladi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so`zi, 2013-yil, 7-dekabr.
2. Karimov.I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi 23 yanvar 2011 yil.
3. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida. - Toshkent: «O'zbekiston» 2011. 169 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi "Barkamol avlod dasturi to'g'risida"..-2009 yil. 9-dekabr. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2009yil. 12-son. 32b.
5. Islom Karimov."Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi mavzusidagi ma'ruzasi.
6. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, 2009 yil mart.16b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.- B.48 b.

II. ILMIIY-USLUBIIY

1. Davlat tili to'g'risidagi qonun-amalda" Qumri Abdullayeva, Boshlang'ich ta'lim jurnali 2007-4-son. 5-bet.32b
2. G'offorovaT, G'ulomova X, Eshturdiyeva G "1-sinfda savod darslari" Toshkent "O'qituvchi" 1996 yil, 86 bet
3. N.T.Sabirova. Interaktiv metodlar bilan o'quvchilarni boshqaramiz. - Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI aspiranti. Maktab va hayot jurnali 2008 yil 5-son 46b betlar

4. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Ona tili darslari (qo'llanma).- Toshkent, 1999.86b
5. Abdurahmonov G`. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 1996.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2002. 228 b.
7. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakultetlari uchun darslik.- Toshkent: Noshir, 2009. 347 b.
8. Qosimova K., Ne'matova A. 1-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2004.126 b.
9. Qudratov O., G'aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. –T.: Aloqachi,2004.-3-b.
10. Omonov N., Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2009. 286 b
11. Safarova R., G'ulomov M. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.- Toshkent, 2003.86b
12. Tursunov M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992.246b
13. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2006. 218 b
14. Xudoyberganova M., Fuzailov S., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2008.196 b
15. G'afforova G. va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2003.196 b
16. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1987. 246 b

INTERNET MA'LUMOTLARI:

17. Savod o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish <http://alifbe.zy.uz/11>
Vasikova Shaxnozani maxsus sayti.

18. Yo'ldosheva Sh. 3– sinf o'qish darslarida interfaol usullardan foydalanish. O'quvchilarning milliy ma'naviyati shakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni.(ilmiy-metodik to'plam). NTDPU Toshkent-2009. Ziyonet.uz